

**TURDIYEVA IZZATØY SADIKØVNA**

# **METØDIKA FANLARINI Ø'QITISH TEXNOLOGIYASI**



**Ø'QUV QØ'LLANMA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
DENOY TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TURDIYEVA IZZATOY**



## **METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

### **O'QUV QO'LLANMA**

<b>Bilim sohasi:</b>	900 000	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
<b>Ta'lim sohasi:</b>	920 000	Ijtimoiy ta'minot
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	60920100	Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha)

**DENOY – 2025**

UO`K: 373.091.33 (075)

KBK: 74.202.5ya 7

T: 21

Turdiyeva I.

Metodika fanlarini o`qitish texnologiyasi [Ma`ruza mashg`ulotlari]: o`quv qo`llanma / Turdiyeva. I. S. – Denov: Termiz publishing center, 2025. – 180 b.

Tuzuvchi:

Turdiyeva I.

Mas`ul muharrir:

Suyunov Sh.

Taqrizchi(lar):

**Boboqulova D.**

Pedagogika fanlari bo`yicha  
falsafa doktori (PhD)

**Xudoyqulov X.**

Pedagogika fanlari doktori,  
professor

“Metodika fanlarini o`qitish texnologiyasi” nomli mazkur o`quv qo`llanma Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “25” avgustdagi 391-son buyrug`iga asosan 60920100 - Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo`yicha) yo`nalishi talabalari ushun o`quv qo`llanma sifatida nashrga etishga tavsiya etilgan.


ISBN: 978-9910-675-81-2

© Turdiyeva Izzatoy

© Termiz publishing center, 2025-yil

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1</b> Maktabgacha ta`limda metodika fanlarini o`qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Maktabgacha ta`limda metodika fanlarini o`qitish texnologiyasi fanining qonuniyatlari .....	6
<b>2</b> Maktabgacha ta`limda metodika fanlarini o`qitish texnologiyasi fanining asosiy tamoyillari .....	18
<b>3</b> Metodika fani o`qituvchisining o`quv-me`yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash texnologiyasi. Metodika fanlarini o`qitish texnologiyasiga zamonaviy yondashuvlar .....	25
<b>4</b> Davlat ta`lim standartining tuzilishi va mazmuni. O`quv rejasi, fan va ishchi dasturlarga qo`yiladigan talablar .....	33
<b>5</b> Maktabgacha ta`lim o`nalishi bo`yicha metodika fanlaridan o`quv-metodik komplekslar tayyorlashning ahamiyati .....	46
<b>6</b> Ta`lim jarayonida metodlarning mohiyati. Ta`lim jarayonida turli metodlardan foydalanish. O`qitish metodlarining tasnifi. O`qitish jarayonida qo`llaniladigan metodlarga qo`yiladigan talablar. Metodlarning turlari .....	57
<b>7</b> Metodika fanlarini o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari .....	69
<b>8</b> Ta`lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Keys-stadi metodi. O`qitish jarayonida qo`llaniladigan texnologiya turlari. Turli texnologiyalarni o`quv jarayoniga tatbiq qilish .....	79
<b>9</b> Ta`limning zamonaviy tashkiliy shakllari. Ta`limning zamonaviy tashkiliy shakllaridan foydalanilganda ta`limning natijaviyligi .....	91
<b>10</b> Ma`ruza turlari va ularga qo`yiladigan talablar. Mashg`ulot turiga qarab ma`ruzalarni tanlab olish .....	104
<b>11</b> Seminar, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlarini o`tkazish texnologiyasi. Seminar, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlarini bir-biridan farqi va ahamiyatli jihatlar .....	118



12 Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi .....	126
13 Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanida talabalar bilimni tekshirish va baholashning reyting tizimi. Talabalar bilimlarining reytingi .....	133
<b>Fandan nazorat turlari jadvali va baholash mezonlari ....</b>	<b>144</b>
<b>Testlar .....</b>	<b>151</b>
<b>Keyslar .....</b>	<b>163</b>
<b>Tavsiya etilgan adabiyotlar .....</b>	<b>174</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>179</b>
<b>Ilovalar .....</b>	

## SO`Z BOSHI

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umum e'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga zamonaviy shart-sharoit oliy pedagogika ta'lim muassasalarini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan holda pedagog kadrlar tayyorlashning innovatsion tizimini joriy etishni talab etmoqda.

Oliy pedagogika ta'lim muassasasi bakalvri texnikaga doir zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga, noan'anaviy mashg'ulotlarni loyihalash va tashkil etish metodlarini bilishi, ta'lim jarayoniga tadbqiq qila olishi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirishi, faoliyatga nisbatan kreativ yondashuv, pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlanishida texnologiyalarning ahamiyati kabi bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirmog'i lozimdir. 60110200 - "Maktabgacha ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining majburiy fanlar blokiga kiritilgan "Metodika fanlarini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" fani aynan yuqorida belgilangan masalalar yechimi uchun asos sanaladi.

"Metodika fanlarini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" o'quv fan dasturi asosida tayyorlangan "Metodika fanlarini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" nomli o'quv qo'llanmada bakalavrlarga fanning nazariy va milliy asoslari, O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaning ustuvor masalalari, fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida texnologiya tushunchasining mazmuni va mohiyati, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvlar, ta'lim metodlari, interfaol metodlar, texnologiyalar va loyihalashtirishning tarixi, oliy ta'limda texnologik va loyihalashtirish jarayonlarining bosqichlari, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish texnologiyalari, keys-stadi texnologiyasi kabi bilim, ko'nikma, malakalarni berish nazarda tutiladi.

©Muallif

## MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA



### Reja:

1. "Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" fanining maqsad va vazifalari.
2. "Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" fanining boshqa pedagogik fanlar o'rtasidagi o'rnini.
3. "Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" fanining metodologik asosi.

**Tayanch tushunchalar:** innovatsion pedagogik texnologiya, 3-ming yillik, islohotlar, fan-texnika taraqqiyoti, texnik tafakkur, metodologiya, metod, individual o'qitish, ta'lim-tarbiya.

### "Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" fanining maqsad va vazifalari.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi sohasida ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasining ahamiyati benihoya katta bo'lib, u bolaning shaxs sifatida shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu fanning asosiy maqsadi – bo'lajak pedagoglarga maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qitish metodikasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktik yondashuvlar, innovatsion o'qitish uslublari va vositalarini to'g'ri tanlash va ularni samarali qo'llash kompetensiyasini shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda pedagogika, psixologiya, metodika fanlarining integratsiyasi asosida bolalar bilan ishlashda individual yondashuvlarni tatbiq etish, ularning tabiiy qiziqishlari, faoliyat turlari aniqlab, rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasining pedagogik jarayondagi o'rnini ko'p jihatdan o'ziga xos bo'lib, u nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu fan orqali talabalarda dastlabki kasbiy dunyoqarash, bolaga nisbatan pedagogik pozitsiya va individual yondashuv asoslari shakllanadi. Ayniqsa, metodikani texnologik yondashuv asosida o'rgatish bo'lajak pedagogni nafaqat tayyor amaliyotchiga aylantiradi, balki uni innovatsion fikrlovchi, kreativ pedagogik yetakchi sifatida kamol toptiradi. Bu texnologik yondashuvlar o'z ichiga axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, kompetensiyaviy yondashuv asosida dars rejalari tuzish, loyihalash, baholash, monitoring va refleksiya mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etishni qamrab oladi.

Mazkur fan doirasida o'rgatiladigan metodik yondashuvlar jumlasiga dars tahlili, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, o'yin texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlar, vizual vositalar orqali o'qitish, didaktik materiallarni ishlab chiqish, bolalarning yosh psixologiyasiga moslashtirilgan faoliyat turlarini tashkil qilish kiradi. Bu jarayonlar har bir pedagogik faoliyatning zamonaviy mezonlari bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim. Shu boisdan, "Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" fani doirasida har bir metodikaning nazariy asoslari bilan bir qatorda, amaliy yondashuvlari, ya'ni bolalar bog'chasida qo'llanishi mumkin bo'lgan faoliyat namunalari loyihalash va tahlil qilish, pedagogik topshiriqlarni tuzish va ularni bola psixikasi bilan uyg'unlashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Ta'lim texnologiyalarining mazmuni o'quv rejalari va dasturlar orqali belgilanadi. Metodika fanini texnologik asosda o'qitishda modulli o'qitish, masalali ta'lim, ko'rgazmali vositalardan foydalanish, portfoliolar tayyorlash, elektron resurslardan foydalanish, interfaol tahdidlar yaratish orqali ta'lim olish sifatini oshirish mumkin. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim metodikasida bolalarni tarbiyalash, ularni o'yin orqali o'rgatish, nutqini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta'sir qilish mexanizmlari chuqur o'rganiladi.

Shuningdek, mazkur fan talabalarda pedagogik refleksiya yuritish malakasini, ya'ni o'z faoliyatiga baho bera olish, dars samaradorligini tahlil qilish, bolaning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilayotganini tahlil qila olish, shuningdek, darsda yuzaga keladigan noan'anaviy vaziyatlarda to'g'ri pedagogik qaror qabul qila olish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Bu esa o'z navbatida, maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi.

Fan doirasida o'qituvchilar zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga, jumladan, klasterlar, fikrlar xaritasi, SWOT-tahlil, reflektiv kundalik, interfaol treninglar, pedagogik stsenariylar tuzish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish orqali o'z ta'lim faoliyatini takomillashtiradi. Bu kabi texnologiyalar yordamida bo'lajak pedagog o'zining kasbiy mahoratini oshirib, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, fanni o'qitish jarayonida individual yondashuvga asoslangan differentsial o'qitish, inkluziv ta'lim sharoitlarida metodik yondashuvlar, multimedial materiallar bilan ishlash kompetensiyalari ham rivojlantiriladi.

“Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi” fanining vazifalari esa, birinchidan, talabalarni maktabgacha ta'lim metodikalari bilan tanishtirish, ularning mazmuni, maqsadi va vazifalarini ochib berishdan iborat bo'lsa, ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos metodik materiallarni tanlash, tahlil qilish va yaratish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Uchinchidan, talabalarni pedagogik tajribalarni tahlil qilish, amaliy mashg'ulotlar olib borish, bolalar bilan faol ishlashga tayyorlash, mustaqil pedagogik faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirish fan vazifalariga kiradi.

Mazkur fan pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan mutaxassis uchun metodik kompetensiyalarni shakllantirish, o'z bilimini amaliyot bilan bog'lay olish, bolalar bilan muomala jarayonida to'g'ri psixopedagogik yondashuvni amalga oshirish, shuningdek, zamonaviy ta'lim tendensiyalariga mos ravishda metodik faoliyat yuritish imkonini beradi. O'qitish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar, tajriba-sinov metodlari, dars kuzatuvlari, loyihaviy faoliyatlar, mustaqil ishlanmalarga asoslangan materiallar tayyorlash orqali talabalarning ijodiy, tanqidiy va reflektiv fikrlash kompetensiyalari kengaytiriladi.

Shunday qilib, “Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi” fani zamonaviy pedagogik tafakkurga ega, texnologik jihatdan tayyorlangan, bolalar shaxsiyati va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda ishlay oladigan ilg'or pedagoglarni tayyorlashda muhim fan sifatida ajralib turadi.

Bu fan yordamida ta'lim jarayoni qatnashchilari – o'qituvchi va bola o'rtasidagi o'zaro samarali hamkorlik, o'rganishdan zavqlanish, qiziqish va ijodkorlik muhitini yaratish, pedagogik faoliyatni muayyan reja, texnologik algoritm asosida olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa nafaqat ta'lim sifati, balki bolalarning maktabgacha yosh davrida erkin va faol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida qaralishi, uning samaradorligini ta'minlash va o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Bu jarayonni o'rganish, ta'lim tizimining umumiy qonuniyatlari va metodika fani o'qitishining texnologik jihatlari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida yondoshuvni talab qiladi. O'qitish texnologiyalari, bolalarning individual va guruhdagi ehtiyojlariga qarab rivojlanish, faollikni rag'batlantirish va kognitiv faoliyatni oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Yaxlit va tizimli yondashuv yordamida metodika fanlarini o'qitish jarayoni yanada samarali va sifatli bo'lishi mumkin.

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.** Maktabgacha ta'limda metodika fanlari-maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularda ahloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni maktab ta'limiga tayyorlash muammolarini o'rganadi. Maktabgacha ta'limda metodika fanlari bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihati-unga ta'lim berish va uni tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratadi. Maktabgacha ta'limda metodika fanlari - ta'lim jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fani ning vazifalari. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Maktabgacha pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi fanini maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish; ta'lim va tarbiya berish jarayonini nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Maktabgacha ta'limdagi ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Bo'lg'usi tarbiyachlarni maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya berish usullari bilan qurollantirish.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Faning mohiyatini ochibberuvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: *shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.*

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim-o'quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining boshqa fanlar bilan bog'likligi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik jarayon va uning tuzilishi. Pedagogik kasbining paydo bo'lishiga e'tibor qaratilsa, shu narsa ko'rinadiki, dastlab uning doirasida differensiallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan bo'lsa, keyinchalik ochiqchasiga ta'lim va tarbiya qarama-qarshi qo'yila boshladi: o'qituvchi o'qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi.

Lekin XIX asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda obyektiv nuqtai nazardan ta'lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. Nemis pedagogi A. Disterveg, ta'limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: "Ta'lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha".

I.F.Gerbarning fikricha, tarbiyasiz ta'limda vosita bor, lekin maqsad yo'q, ta'limsiz esa maqsad bor, vosita etishmaydi.

Pedagogik jarayonning yagonaligi g'oyasi K.D.Ushinskiy g'oyalarida chuqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining ma'muriy, o'quv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi. K.D.Ushinskiyning taraqqiyparvar g'oyalari uning izdoshlari: N.F.Bunakov, P.F.Lesgaft, K.B.Yelniskiy, V.P.Baxterov va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F.Kapterev alohida shug'ullandi. U pedagogik jarayonlarning ko'ptomonlama ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: "Ta'lim, o'qitish, o'rgatish, tarbiya, pand-nasihati, o'git va boshqa bir qator so'zlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yagona pedagogik jarayondir".

XX asrning 70-yillarida Y.K.Babanskiy, B.S.Ilin, V.M.Korotov, B.V.Kraevskiy, B.T.Lixachev, Y.P.Sokolnikov va boshqalar yagona pedagogik jarayonga ilmiy qiziqish bilan qarashdi.

Pedagogik jarayonning mohiyati tizimli metodologik yondashuv asosidagina zamonaviy mualliflar tomonidan ochib berildi.

Pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog'langan. Uning mohiyati, mazmuni va yo'nalganligi ijtimoiy jarayonlarning holati, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining real o'zaro harakatiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy xususiyati-yagonalik, undagi barcha muhim tarkibiy qismlarni saqlab qolish zaruriyati.

Yaxlitlik asosiga ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlash pedagogik jarayonning mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik jarayon-ko'plab jarayonlarning ichki aloqadorligi yig'indisidir. Unda o'qitish, ta'lim, tarbiya, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari birlashadi.

Pedagogik jarayonning umumiyliigi va birligi uni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni yagona maqsadga bo'ysundiradi. Pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlari:

- uni tashkil etuvchi jarayonlarning birligi va mustaqilligi;
- undagi jarayonlarning yaxlitligi va teng huquqliligi;
- umumiy mavjudlik va o'ziga xoslikni saqlashda namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonga uning tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorlikda qonuniy joy egallashi birligini o'zida ifoda etuvchi yagona tizim sifatida qarash mumkin.

Tuzilish (struktura) - bu tarkibiy qism(element)larning tizimdagi joylashuvidir. Tizimlarning tuzilishi tarkibiy qismlarni qabul qilish mezonlarida belgilangani bo'yicha, bundan tashqari ular orasidagi aloqadorlikda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonning o'zi maqsad, vazifa, mazmun, metodlar, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati shakllari, shu bilan birga erishilgan natijalar bilan xarakterlanadi.

Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- pedagog-tarbiyachilar;
- tarbiyalanuvchilar;
- tarbiyaviy shart-sharoitlar.

Jarayonning aniq maqsadli tarkibiy qismi pedagogik faoliyatning barcha ko'p obrazli maqsad va vazifalarini: bosh maqsad - har tomonlama va barkamol shaxsni tarbiyalashdan - alohida sifatlarni shakllantirishning aniq vazifasigacha o'z ichiga qamrab oladi. Jarayonning aniq maqsadli tarkibiy qismi pedagogik faoliyatning barcha ko'p obrazli maqsad va vazifalarini: bosh maqsad - har tomonlama va barkamol shaxsni tarbiyalashdan - alohida sifatlarni shakllantirishning aniq vazifasigacha o'z ichiga qamrab oladi. Mazmunli tarkibiy qism umumiy maqsad bilan birga, xuddi shunday aniq vazifani qo'yadigan ma'noni aks ettiradi.

Faoliyatli tarkibiy qism - jarayonni tashkil etish va boshqarishda busiz belgilangan natijalarga erishish mumkin bo'lmagan pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati va ularning hamkorligi. Mazkur tarkibiy qism pedagogik adabiyotlarda yana tashkiliy yoki tashkiliy-boshqaruvli deb ham nomlanadi.

Jarayonning natijali tarkibiy qismi uni amalga oshishi samaradorligini aks ettiradi, qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda muvafaqqiyatli o'zgarishlarga olib kelish bilan xarakterlanadi.

### **Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining qonuniyatlari**

Pedagogik jarayon qonuniyatlari - bu obyektiv mavjud bo'lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorlik, mazkur jarayonning alohida tomoni.

Qonuniyatlar nima va pedagogik jarayonda qanday bog'langan, nima bilan u bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik taraqqiyot sifatidagi bu qadar murakkab, katta va dinamik tizimda ko'plab turli tavsifiy aloqalar namoyon bo'ladi.

Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayon qonuniyatlarning yagona tas-nifi mavjud emas. Shu sababli quyida mavjud tasniflardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

#### *I. P. Podlasiy tasnifi bo'yicha:*

Tarbiya va ijtimoiy tizimlarning aloqadorligi: aniq tarixiy sharoitlardagi tarbiya xarakteri jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy, milliy-madaniy o'ziga xosliklari bilan aniqlanadi.

Ta'lim va tarbiya orasidagi: bu jarayonlarning o'zaro bog'liqligini, ularning ko'ptomonlama o'zaro ta'sirini, birligini belgilab beruvchi aloqadorlik.

Tarbiya va faoliyatning aloqadorligi: tarbiyalash - faoliyatning turli turlariga tarbiyalanuvchilarni jalb etish demakdir.

Tarbiya va shaxs faolligining aloqadorligi: agar uning obyekti (shaxs) bir paytning o'zida subyekti sifatida aks etsa, tarbiya muvafaqqiyatli amalga oshadi, ya'ni shaxs o'zining faol xulq-atvorini, shaxsiy erkinligini, mustaqilligini, faoliyatdagi ehtiyojini namoyon etadi.

Tarbiya va muloqotning aloqadorligi: tarbiya jarayoni har doim odamlar - o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro harakatida kechadi.

Bola tarbiyasi muvafaqqiyati to'g'ridan-to'g'ri shaxslararo aloqalarining intensivligi va boyligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonning dinamik qonuniyati-ta'lim oluvchining keyingi barcha muvafaqqiyatlarining qimmatini uning dastlabki bosqichlardagi muvafaqqiyatiga bog'liq bo'ladi.

#### *M.Kodjaspirov bo'yicha:*

Ijtimoiy shart-sharoitlar bilan shartlanganlik qonuniyati: ta'lim va

tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlarga bog'liqligi.

Inson tabiati bilan bog'langanlik qonuniyati:

✓ shaxsni shakllantirishda muloqot va faoliyatning hal qiluvchilik roli;

✓ ta'lim va tarbiyaning ta'lim oluvchilarning yosh va individual o'ziga

xosliklariga bog'liqligi.

Tarbiyaviy jarayon mohiyatining shartlanganlik qonuniyati:

✓ tarbiya, o'qitish, ma'lumot va shaxs rivoji jarayonlarining o'zaro

bog'liqligi;

✓ o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs va ijtimoiy guruhlarining o'zaro

aloqasi.

M.Kodjaspirovning mazkur tasnifi Y.K.Babanskiyning tasnifiga juda yaqin. Yagona pedagogik jarayonning qonuniyatlari, aynan akademik Y.K.Babanskiy tomonidan sodda va tushunarli ochib berilgan:

1. Ta'lim va tarbiya jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlariga bog'liq holda amalga oshadi.

2. Tarbiya, o'qitish, ma'lumot va rivojlanishning o'zarobog'liqligi qonuniyati.

3. Tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning birligi qonuniyati.

4. Ta'lim va tarbiya jarayonida muloqotning hal qiluvchilikroli qonuniyati.

5. Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

6. Pedagogik jarayonda jamoa va shaxsning o'zaro aloqadorlikqonuniyati.

7. Pedagogik jarayon vazifalari, shakllari, metodlarining o'zaroaloqadorlik qonuniyati.

Yagona pedagogik jarayon qonuniyatlari singari tamoyillari masalasida ham turli qarashlar mavjud. Hatto ba'zi pedagoglar ularni qonuniyat sifatida e'tirof etishga moyildirlar. Biroq yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qonuniyatlar obyektiv, eng muhim, barqaror, o'zgarishda, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi.

Pedagogik jarayon qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni tamoyillar (prinsiplar) deb ataymiz.

Yagona pedagogik jarayon tamoyillarining ham hozirgacha turli tasniflari adabiyotlarda o'z aksini topgan. Agar ularni sinchiklab o'rganib chiqilsa, tasniflarning bir-biriga yaqinligini ko'rish mumkin.

Shu sababli biz quyida ko'pchilik tomonidan tushunarli deb topilgan ikkita (Y.K.Babanskiy, B.T.Lixachev) tasnifini berishni ma'qul va lozim deb topdik.

*Yagona pedagogik jarayon tamoyillarining Y.K.Babanskiy bo'yicha tasnifi:*

- + pedagogik jarayonning maqsadga yo'naltirilganligi;
- + ta'lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi;
- + ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarlilik;
- + tizimlilik va ketma-ketlik;
- + ongillik, faollik, tashabbuskorlik, ta'lim oluvchilarning ijodkorligi;
- + ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi;
- + ta'lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri;
- + ko'rgazmalilik;
- + ongli talabchanlik bilan birgalikda ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;
- + ta'lim va tarbiyaning qo'lay metod, shakl va vositalarini tanlab olish;
- + sababiylik, ongillik hamda ta'lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalari;
- + tarbiyaga kompleks yondashuv.

*B. T. Lixachev tasnifi:*

- + o'quv-tarbiya jarayonining ijtimoiy-qadriyatli maqsadga yo'nalganligi;
- + butun o'quv-tarbiyaviy ishlarning hayot bilan bog'liqligi;
- + ta'lim va tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, jamoada ta'lim va tarbiya;
- + ta'lim oluvchilarga talabchanlik va hurmatning birligi;
- + ta'lim oluvchilar hayotiga rahbarlik qilishda ularning tashabbuskorliklarini hisobga olish;
- + barcha ta'lim oluvchilar hayotini estetizatsiyalash;

- + ta'lim va tarbiyaning boshqaruvchilik roli;
- + ta'lim oluvchilarning bilish, mehnat va boshqa faoliyatlarini rag'batlantirishni hisobga olish, ularda ishga bevosita qiziqish uyg'otish orqali axloqiy-irodaviy kuchini faollashtirish;
- + ta'lim oluvchilarda barcha turdagi fikrlashni rivojlanishini hisobga olish, ketma-ketlik va tizimlilik;
- + ko'rgazmalilik;
- + tushunarlilik;
- + sababiylik.

Umuman olganda, yagona pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismlarining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasining shakllanish jarayoni pedagogika fanini o'quv predmeti sifatidagi rivoji bilan bog'liqdir.

#### Nazorat uchun savollar

1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining maqsadi nima?
2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining predmeti nima?
3. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining vazifalari?



## MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANINING ASOSIY TAMOYILLARI



### Reja:

1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fani va uning asosiy kategoriyalari.
2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fani – pedagogik fanlar tizimi.
3. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining ilmiy tadqiqot metodlari

**Tayanch tushunchalar:** pedagogika, o'qitish, ma'lumot, inson kamoloti, insonning shakillanishi, kuzatish, suhbat, anketa, eksperiment.

**Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fani va uning asosiy kategoriyalari.** Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasining asosiy tamoyillari o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlash, bolalar uchun ta'limni qulay va qiziqarli qilish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, hamda pedagogik maqsadlarga erishishda samarali usullarni tanlashga qaratilgan. Quyida maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasining asosiy tamoyillari keltirilgan:

**1. Faollik tamoyili.** O'qitish jarayonida bolaning faol ishtiroki va fikrlash faoliyatini rag'batlantirish zarur. Bu tamoyil bolalarning mustaqil ishlashini, ularning amaliy faoliyatini va muloqotini o'rgatishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'limda faollik tamoyili bolalarga yangi bilimlarni faqat kuzatib emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etib o'rganishga imkon yaratadi. Bu, o'z navbatida, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va o'z-o'zini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**2. Shaxsiylashtirish (Differensiallash) tamoyili.** Har bir bola o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bois o'qitish jarayonida bola ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinishi kerak. Shaxsiylashtirish tamoyili o'qitishda bola uchun individual yondashuvni qo'llashni nazarda tutadi. Bu tamoyil, ayniqsa, bolalar o'rtasidagi farqlarni inobatga olish va har bir bolaning o'ziga xos rivojlanish ritmini hurmat qilish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchining vazifasi – o'quvchilarni qiziqtirish, ularga mos keladigan materiallar va metodlarni tanlash.

**3. Muloqot va hamkorlik tamoyili.** Maktabgacha ta'limda muloqot va hamkorlik tamoyili bolalar o'rtasidagi jamoaviy ishlashni, ijtimoiy muloqotni va birgalikda faoliyat yuritishni rivojlantirishga qaratilgan. O'qitish jarayonida bolaning o'qituvchi va tengdoshlar bilan muloqoti, birgalikda ish tutish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu tamoyil bolalarga muammolarni birgalikda hal qilish, boshqalar fikrini hurmat qilish va o'z fikrlarini aniq ifodalashni o'rgatadi.

**4. Integratsiya tamoyili.** Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitishda turli fanlar va mavzularni integratsiyalash tamoyili qo'llaniladi. Masalan, san'at, musiqa, jismoniy tarbiya va matematika kabi fanlar o'rtasidagi bog'liqliklarni namoyon etish, bolalarning dunyoqarashini kengaytirish va ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Bu tamoyil orqali o'quvchilar bir nechta sohalar bo'yicha umumiy bilimlarga ega bo'ladilar.

**5. Yuqori darajadagi o'qitish (Chidamlilik va sabr-toqat) tamoyili.** Maktabgacha ta'limda bolaning o'rganish darajasi va ritmi har xil bo'ladi. Shu sababli, o'qituvchining chidamliligi, sabr-toqatliligi va bolalarning o'zlashtirish darajasini inobatga olib, ta'limni boshqarish tamoyili muhim hisoblanadi. Bu tamoyil bolaga qiyin vazifalarni asta-sekin va bosqichma-bosqich o'rgatishni, ularga yordam berishni va o'zlashtirish jarayonini mukammallashtirishni talab qiladi.

**6. Kreativlik (Ijodkorlik) tamoyili.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirish uchun o'qitish jarayonida kreativlik tamoyilini qo'llash zarur. Bu tamoyil bolaning tasavvurini, ijodiy fikrlashini, yangi fikrlarni yaratish va muammolarni yechish uchun innovatsion yondashuvlarni rivojlantiradi. Maktabgacha ta'limda ijodiy

faoliyatlar, o'yinlar, dizayn va boshqalar bolalarning kreativ imkoniyatlarini ochishga yordam beradi.

**7. Qiziqish va motivatsiya tamoyili.** Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun bolaning qiziqishlarini uyg'otish va o'qishga motivatsiya berish zarur. Qiziqish va motivatsiya tamoyili orqali bolalar ta'limga qiziqish bilan yondashadi, o'rganish jarayonida samarali ishtirok etadilar. Ta'lim jarayonini qiziqarli, o'yinli, tanish va o'rganishga qiziqtiruvchi elementlar bilan to'ldirish, bolalarda kuchli motivatsiya yaratadi.

**8. Pragmatiklik tamoyili.** O'qitish jarayonida bolaning kundalik hayotidagi faoliyatlarga nisbatan amaliy ko'nikmalarni o'rgatish muhimdir. Bu tamoyil bolalarga o'z bilimlarini real hayotda qo'llashni o'rgatishni maqsad qiladi. Masalan, maktabgacha ta'limda bolalarni o'qitishda har bir o'rgatilgan metodikaning amaliy jihatlari va real hayotdagi foydasi ko'rsatilishi kerak.

**9. Tizimlilik tamoyili.** O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida tashkil etilishi kerak. Har bir metodika, dars rejasini va maqsadlarni ishlab chiqishda tizimli yondashuvni qo'llash muhim. Bu tamoyil ta'lim jarayonini muayyan bir tartibda, izchil va mantiqiy ravishda tashkil qilishni ta'minlaydi. Har bir dars va mashg'ulotning maqsadi, materiallari, metodlari va baholash tizimi o'zaro mos kelishi lozim.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasining asosiy tamoyillari ta'lim jarayonini samarali va o'quvchilarga mos tarzda tashkil qilishga yordam beradi. Ushbu tamoyillar bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitishni ta'minlaydi, o'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otadi, ijodkorligini rivojlantiradi va amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. O'qituvchi har bir tamoyilni o'ziga xos sharoitda, bolalarning ehtiyojlariga moslashtirib qo'llashi kerak.

“Didaktika” grekcha so'z bo'lib, “o'qitish”, “o'rgatuvchi” degan ma'nolarni anglatadi. “Didaktika” so'zining ma'naviy tarjimasini “Ta'lim nazariyasi” demakdir. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'lim tamoyillarini, ta'lim mazmunini, ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta'lim nazariyasining asosiy mohiyati ta'limni tashkil etishdan iboratdir. Ta'limni tashkil etishdan asosiy

maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Didaktika pedagogikaning sohasi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni yetkazishga oid uyushgan faoliyat qonuniyatlarini va ularni yosh avlod tomonidan o'zlashtirilishini o'rganadi. U o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishga oid normativ talablarni ishlab chiqadi.

Didaktika asosini - ta'lim prinsiplari tashkil etadi.

Prinsip - rahbar g'oya, asosiy qoida, faoliyatga, xulqqa nisbatan qo'yilgan asosiy talabdir.

Ta'lim prinsipi - ta'lim jarayoniga quyiladigan asosiy talabdir.

1. Ta'limning tarbiyaviy xususiyatli prinsipi.
2. Ta'limning ilmiyligi prinsipi.
3. Ta'limning tizimlilik prinsipi.
4. Ta'limning tushinarlilik prinsipi.
5. Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi.
6. Ta'limning ongliligi va faolligi prinsipi.
7. Ta'limning puxtaligi prinsipi.
8. Ta'limni alohidalashtirish prinsipi.

Ta'limning tarbiyaviy xususiyati prinsipi. Bu prinsip bir qancha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

❖ material mazmunini Respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, mustaqil rivojlanish yo'lidagi muvaffaqiyatlari, xalqning mehnatidagi yutuqlari, hozirgi zamon fani va texnikasi hamda madaniyati bilan bog'lash;

❖ -shaxsda ma'naviy fazilatlarini, intizomlilikni, qatiyatlilikni va mehnatsevarlikni tarbiyalash;

❖ ta'lim jarayonida hosil bo'ladigan hissiyotlar, kechinmalar va taassurotlarning hosil bo'lish jarayonini boshqarish;

❖ aqliy qobiliyatlarining rivojlantirilishi va shakllantirilishini amalga oshirish.

Bu yo'nalishlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'ziga quyilgan quyidagi talablarga to'liq rioya qilishi kerak:

*Birinchi*dan, o'quvchining dunyoqarashi, uning nuqtai nazari, e'tiqodi qanday shakllanishini bilishi kerak. O'quvchi faqatgina darslik doirasida o'ralib qolmasligi uchun, keng doirada fikrlash, tasavvur qilish qobiliyatini

shakllantirish zarur.

*Ikkinchidan*, o'quvchi shaxsining ma'naviy, mehnatsevarlik, nafosatlilik fazilatlarini takomillashtirishda har bir darsning ahamiyatini tushuntirib borishi kerak.

*Uchinchidan*, o'quv jarayonida o'quvchilarda his-tuygularning paydo bo'lishi, yuzaga chiqishi va ifoda etilishini ta'minlash lozim.

*To'rtinchidan*, o'quvchilardagi qobiliyatlarni yuzaga chiqishini ko'ra bilish va ularni takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratishi zarur.

Har bir o'qituvchi mashg'ulotni yuqorida aytilgan talablarga rioya qilgan holda tashkil etsa, ta'limning tarbiyaviy xususiyati maktab o'quvchisi shaxsini shakllantirishda asosiy ta'sirchan omil bo'lishi amalga oshadi.

1. Ta'limning ilmiylik prinsipi. Bizni qurshab turgan borliqni bilish jarayoni murakkab, ziddiyatli bo'lishi, har-xil bosqichlarni, shakllar va turlarni o'z ichiga oladi. Ilmiy bilish narsaning tashqi tasviridan uning ichki tuzilishini tasvirlashga o'tishidan iboratdir.

1. Ta'limning tizimlilik prinsipi. Ta'limning tizimlilik prinsipi o'quvchilardagi ilmiy bilimlarni mustahkam va chuqur bo'lishiga asoslanadi. O'quvchilardagi atrof-muhit to'g'risidagi bilimlar, o'quv materiallari o'quv jarayonida ketma-ketlik asosida chuqurlashtirilib borilsagina ularda mantiqiy fikrlash rivojlanib boradi va ular o'quv materialini oson o'zlashtiradilar.

O'quvchi bilimlarining ilk manbaini, narsalarning, hodisalarning o'zaro munosabatlarini tasavvur eta bilishlari shart. O'quv materiali fanning maxsus ishlangan asoslari, qismlari, qoidalari, bo'linmalaridan iboratdir.

Fandagi bilimlarning maktabdagi o'quv materialiga asos qilib olinishini to'g'ri tushinib yetish shart. O'quvchi tomonidan materialni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirish usullariga bog'liqdir. O'qituvchining mahorati va yaxshi tayyorgarligi o'quvchilar tomonidan bilimlarni puxta va tizimli tarzda o'zlashtirishga asos bo'ladi.

Bir hildagi bilim turli xil metodlar, vositalar bilan berilishi mumkin. Bunda o'qituvchi tushuntirishning eng maqbul metodini tanlab oladi.

2. Tushunarlilik prinsipi. Tushunarlilik prinsipi o'quvchilarni yosh xususiyatlari qonuniyatlariga va o'quvchilarni rivojlanish darajalarini

ta'limiy jarayonni tashkil etish va amalga oshirishga mos kelishiga asoslanadi.

3. Ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi. Ko'rgazmalilik prinsipi - ta'lim jarayonida juda keng qo'llaniladi.

O'qitishning ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish, demak bu - ko'rgazmali qurollarga tayanish, o'quvchilar hissiy bilishining barcha jihatlariga rahbarlik qilish va boshqarishdir.

4. Ta'limning ongliligi va faolligi prinsipi. Bu ta'lim jarayonida asos qilib olingan qoida sifatida quyidagi uchta muhim jihatini o'z ichiga oladi:

- o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining ongli ravishda tushunilishi;

- o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lish;

- bilish faoliyatining shakllanishi.

O'quvchi bilish faolligining darajasi turlicha bo'lishi mumkin:

*Eng yuksak daraja*. O'quvchi -talaba o'rganish maqsadida mustaqil ravishda mehnat qiladi. Uning darsga faolligi, mehnatsevarligi va bilimga tashnaligi oqibatida yuz beradi. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi o'quvchi-talabaga o'kish vaqtini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi, unga aqliy faoliyatini rivojlantirishni qulay usullarini o'rgatishdan iboratdir.

*Yuksak daraja*. O'quvchi-talabalar materialni faollik bilan, lekin o'qituvchining rahbarligida ostida o'raniladilar. O'qituvchi ularga qiyinchiliklarni yengishda, qat'iyatli, irodali bo'lishda yordamlashgan holda ular faoliyatini yo'naltirib boradi.

*O'rtacha daraja*. O'quvchi-talabalar ta'lim mazmunini o'zlashtirib olishga intiladilar, lekin turli sabablarga ko'ra diqqat e'tiborsiz bo'lib qoladilar. O'qituvchi bu sabablarni aniqlashtirib, so'ngra ta'sir ko'rsatib faollikni oshiradi.

*Past daraja*. O'quvchi-talabalar ta'lim vazifasini anglaydilar, biroq ular o'qituvchining izohlariga, kitobga, amaliy mashg'ulotlarga, mustaqil ishlashga uzoq vaqtga qadar diqqatini qarata olmaydilar. O'qituvchi bunday o'quvchilar uchun qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish lozim.

*Eng past daraja*. O'quvchi-talaba vazifasi o'quvchi faoliyatini belgilamaydi. U materialni zarurat bo'lgani uchun o'zlashtiradi, ichki g'ayrat va omil tufayli emas, balki o'qituvchi, ota-onalar, kata yoshdagilar

majbur qilganliklari sababli. Odatda bunday o'quvchilar mehnati samarasiz bo'ladi, ular alohida yondoshini talab qiladi.

O'qitishning ongliligi va faolligi prinsipi o'qituvchining oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

*Birinchi*dan, o'quvchilarning ongli ravishda tushunishini, ongli munosabatini va bilish faolligi darajasini bildiradigan belgilarni bilish kerak.

*Ikkinchi*dan, materialni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradigan aqliy harakatlarni, fikrlash jarayonlarini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish kerak.

*Uchinchi*dan, o'qish sabablarini o'rganish va o'qish jarayonida o'quv mashg'ulotlariga, maktabga, o'qituvchilarga, o'rtog'lariga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo'lishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan omillarni nazarda tutish kerak.

*To'rtinchi*dan, o'quv mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish jarayonida bilish faolligini oshirish vositalari va usullarini maxsus planlashtirish diqqat-e'tiborini, ishga qobiliyatlikni shakllantirish shart.

5. O'qitishning puxtaligi prinsipi. Ta'lim berishning muxim vazifalaridan biri mustaqil bilim olishga, malaka va ko'nikmalar ta'sir qilishga erishishdan iboratdir.

Bilimlarni o'zlashtirishning puxtaligi quyidagi omillarga bog'liq:

- tushuntirishning ilmiyligi va tizimlilikligi,
- tushunishning ongliligi,
- o'quvchilarning bilish faolligi,
- o'qish sabablariga,
- kitoblarning sifatiga,
- o'qituvchining mahorati va h.k.

Ta'limning puxtaligi prinsipi o'quv jarayoniga nisbatan quyidagi talablarni qo'yadi:

*Birinchi*dan, mashg'ulot materialida asosiy fikrni alohida ajratib ko'rsatish kerak. Mashg'ulotda takrorlash, tushuntirish, mustahkamlash asosiy qismlarini tashkil qiladi. Mashg'ulotda o'rganiladigan material nazariy qoidalardan, aniq ma'lumot, bayon va izohlardan iborat bo'lishi kerak.

*Ikkinchi*dan, nazariy bilimlarning asosiy fikr negizida guruhlanadigan, birlashadigan qismini yaxshi tasavvur etish kerak. Asosiy qoidalar bilim, ko'nikma va malakalarning shakllantiradigan bo'lsa, u xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi.

*Uchinchi*dan, o'rganilayotgan materialning nuqtai nazarlari, e'tiqodlari, dunyoqarashi bilan bog'liqligi bilimlarini puxtaligini ancha oshiradi.

*To'rtinchi*dan, o'quvchining bilim ko'nikma va malakalari amaliyot bilan bog'lansa, ya'ni, amalda qo'llanilsa ular mustahkam bo'ladi. O'quvchilarga olinayotgan bilimlarning amaliy ahamiyati, hayotda ularni qo'l kelishini tushintirish bu borada o'ta zarur.

6. Ta'limni alohidalashtirish prinsipi. Mashg'ulot olib borishning sinf-dars shakli mavjud, ya'ni bunda jamoa holda o'quv faoliyati tashkil qilinadi.

Ayrim o'quvchi-talabalar bunda tez o'zlashtirish qobiliyatiga, ayrimlari sekin o'zlashtirish qobiliyatiga egadir. Kimdir u fanga, kimdir boshqasiga qiziqadi. Bolalarning yosh xususiyati ham o'zlashtirishga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi.

Shunday qilib, o'quvchi-talabalarning bilimini mustahkam o'zlashtirishlariga, bilim va malakani egallashlariga barcha ta'lim prinsiplarini - tushunarlilik, tizimlilik, ilmiylik, ko'rgazmalilik, onglilik va o'quvchilar faoliyatini amaliyotga tadbiq etish bilan erishiladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim prinsipi deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogikada qanday prinsiplar tizimidan foydalaniladi?
3. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati prinsipining mohiyati nimada?
4. Ta'limning tizimlilik prinsipi mohiyati nimada?
5. Ta'limning ilmiylik prinsipi.
6. Ta'limning ko'rgazmalili prinsipi va unga qo'yiladigan talablar nima?
7. Ta'limning tushunarlilik prinsipini mohiyatini ochib bering?
8. Ta'limning ongliligi va faolligi prinsipi va uning mohiyati?

**METODIKA FANI O`QITUVCHISINING O`QUV-ME`YORIY  
HUJJATLARI VA METODIK ISHLARI, ULARNI  
REJALASHTIRISH, TASHKIL ETISH VA TAYYORLASH  
TEXNOLOGIYASI**



**Reja:**

1. Metodika fani o`qituvchisining o`quv-me`yoriy hujjatlari va metodik ishlari.
2. Metodika fanlarni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash texnologiyasi.
3. Metodika fanlarini o`qitish texnologiyasiga zamonaviy yondashuvlar  
**Tayanch tushunchalar:** islohotlar, fan-texnika taraqqiyoti, texnik tafakkur, innovatsion pedagogik texnologiya, ta`lim-tarbiya.

**1. Metodika fani o`qituvchisining o`quv-me`yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash texnologiyasi.** Metodika fani o`qituvchisining o`quv-me`yoriy hujjatlari va metodik ishlari pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu hujjatlar orqali o`qituvchi o`zining ta`lim faoliyatini belgilangan davlat standartlariga mos ravishda rejalashtiradi, tashkil qiladi va mazmunan boyitadi. O`quv-me`yoriy hujjatlar tarkibiga fan dasturi, ishchi dastur, kalendariya-tematik reja, dars ishlanmalari, baholash mezonlari, mustaqil ta`lim topshiriqlari, amaliy mashg`ulot matnlari kiradi. Fan dasturi davlat ta`lim talablari asosida ishlab chiqiladi va unda fanning umumiy maqsadi, o`quv yuklamasi, mavzular ketma-ketligi, o`quv faoliyati turlari, baholash usullari hamda foydalaniladigan adabiyotlar keltiriladi. Ishchi dastur esa shu dastur asosida muassasaning ixtisosligi va o`quvchilarning ehtiyojlari hisobga olingan holda tuziladi, unda o`quv yuklamalarini taqsimlash, mavzularning o`quv rejadagi joylashuvi, mustaqil ishlar mazmuni aniqlashtiriladi. Kalendariya-tematik reja esa har bir darsni aniq belgilangan tartibda tashkil qilish, mavzular bo`yicha maqsad, natija, metod, vosita va

baholash shakllarini ko`rsatadi. Mashg`ulot konspektlari, dars stsenariylari, savol-topshiriqlar, vizual materiallar, interfaol metodlar uchun ko`rsatmalar darsga tayyorgarlikni sifatli olib borish imkonini beradi.

Metodik ishlar esa o`qituvchining fan bo`yicha chuqur nazariy va amaliy tahlilga asoslangan tajribalarini, innovatsion yondashuvlarini, interfaol metodlar bo`yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarini, testlar to`plamini, pedagogik holatlarni, keyslarni, multimedia vositalari asosida ishlab chiqilgan dars ssenariylarini, elektron qo`llanmalarni, portfel va monitoring tizimlarini o`z ichiga oladi. Bu ishlanmalar ta`lim jarayonining metodik ta`minotini kuchaytiradi, o`qituvchi va o`quvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Har bir metodik ish aniq mavzuga, yosh davriga, didaktik maqsadga muvofiq tuziladi, uning mazmuni bolalar psixofiziologik xususiyatlariga, kompetensiyaviy yondashuvga, innovatsion pedagogika talablariga mos bo`lishi lozim. Bunday ishlanmalar o`qituvchining ilg`or tajribasini ommalashtirish, yangi metodik vositalarni joriy etish, mustaqil ta`limga yo`naltirish, talabalarda metodik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta`limda metodika turkum fanlari o`qituvchisi o`quv-meyoriy hujjatlar asosida o`zi o`qitadigan fani bo`yicha o`quv-metodik kompleks yaratadi. O`quv-metodik kompleks tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan bo`lib, bu tushunchalarning mohiyatini to`laroq anglash uchun ular tomonidan o`quv-metodik kompleksga berilgan ba`zi ta`riflarni keltirib o`tamiz.

Y.E.Pichugina o`zining tadqiqot ishlarida quyidagicha ta`rif beradi: "O`quv-metodik kompleks - bu fanning o`quv maqsad va vazifalarini to`liq va samarali joriy etish uchun mo`ljallangan o`quv dasutrlari, darslik va o`quv qo`llanmalar, didaktik materiallar va o`qituvchi uchun metodik ko`rsatmalar majmuidir".

Y.K.Babanskiy o`quv-metodik kompleksni zamonaviy ta`limda o`quv-tarbiya masalalarini yechishga qaratilgan o`zaro organik bog`langan o`quv-metodik qo`llanmalar to`plami deb ta`riflaydi.

Bugungi kunda o`quv-metodik komplekslarida qo`yidagilar bo`lishi shart qilib qo`yilgan:

- ✓ o`quv va ishchi dasturlar,
- ✓ taqvim-mavzuiy reja,
- ✓ ma`ruza, seminar va amaliy mashg`ulotlar hamda mustaqil ta`limning texnologik modeli va texnologik xaritasi,
- ✓ ma`ruza matnlari,
- ✓ seminar, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari ishlanmalari,
- ✓ mustaqil ta`lim topshiriqlari,
- ✓ asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati,
- ✓ prezentatsiyalar,
- ✓ nazorat va baholash uchun topshiriqlar,
- ✓ sillabus,
- ✓ fanni o`qitishga doir tashkiliy ko`rsatmalar

O`quv-metodik komplekslarni *ishlab chiqish* vazifalari:

1. O`quv-metodik ta`minotni tayyorlash.
2. Ishlab chiqarish, fan, texnika va ish beruvchilarning talablarini inobatga olgan xolda fan mazmunini tizimlashtirish.
3. Sifatli mutaxassislarni tayyorlashni ta`minlovchi o`quv-metodik va boshqa materiallar bilan o`quv jarayonini ta`minlash.
4. Ta`lim jarayoniga faol usul va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish.
5. Talabalarning mustaqil ishlarini va ularning bilimlarini nazorat qilishni to`g`ri tashkillashtirish va rejalashtirish.
6. Elektron darslik, o`quv metodik qo`llanmalarni ishlab chiqish uchun o`quv metodik materiallar ishlab chiqish.
7. O`quv jarayonini sifatini tizimli nazorat qilish imkoniyatini yaratish.

O`quv-metodik komplekslar:

- talabalar tomonidan o`quv materialini mustaqil o`zlashtirishni;
- talabalar bilimini nazorat qilishni;
- barcha turdagi mashg`ulotlarni tashkillashtirish bo`yicha metodik ta`minotni;

- qo`shimcha axborot ta`minotni *ta`minlashi kerak*.

O`quv jarayonida o`quv-metodik komplekslar:

- o`quv materialini o`zlashtirishda talabalarga amaliy va metodik yordam berish;
- fan bo`yicha o`quv jarayonini tashkillashtirishda va o`tkazishda o`qituvchilarga metodik yordam ko`rsatish;
- o`quv jarayonini metodik ta`minotini takomillashtirishda, uni baholash va rejalashtirishga asos *uchun zarur*

**Syllabus** (lat. *Syllabus Errorum* – “ikkilanishlar ro`yxati”) – 1864-yilda Rim cherkovi tomonidan ishlab chiqilgan muhokama qilinadigan ta`limot va tamoyillar ro`yxati. Qadimda mazkur atama (lat. *syllabus* - katalog) Rim cherkovi tomonidan papa tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarni kodifikatsiyalash uchun qo`llanilgan.

Syllabus - o`qitiladigan fanning manbalarini, uning qisqacha mazmunini, mavzusi va har bir mashg`ulotning davomiyligini, mustaqil

ta`lim topshiriqlarini, maslahat beradigan vaqtni, o`qituvchining talablarini, baholash mezonlarini, oraliq nazorat jadvalini va adabiyotlar ro`yxatini ko`rsatib beradigan o`quv dasturi.

*Syllabusning tarkibiy qismlari:*

1. Professor-o`qituvchi haqida ma`lumot.
2. Murojaat uchun ma`lumotnoma.
3. Prerekvizitlar (Prerequisite).
4. Postrekvizitlar (Postrequisite).
5. Fanning qisqacha tavsifi.
6. Fanning maqsadi va vazifalari.
7. Fanni o`rganishga qo`yiladigan talablar.
8. Taqvim-mavzuiy reja.
9. Ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar rejasi.
10. Talabalarning mustaqil ishlarini (konsultatsiya) o`tkazish rejasi.
11. Mustaqil ishlarni bajarish va topshirish jadvali
12. Kurs ishi mavzulari banki
13. Asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati
14. Talabaning o`quv ishlari natijalarini nazorat qilishga doir savollar
15. Talabalarning bilimini baholash tizimi
16. Talabaning reytingini belgilash shkalasi
17. Yakuniy baholash tartibi
18. Talabaning o`quv natijalarining reyting-balli va baholash tizimi

Syllabusda nafaqat talaba o`zlashtirishi zarur bo`lgan fanlar, imkoni boricha aniq mavzular, bilim va ko`nikmalar ro`yxati keltirilishi kerak.

Talabalarga o`quv fanini mustaqil faoliyatda o`rganish va bilimlar sifatini doimiy o`zi tekshirishini tashkillashtirishda yordam berish uchun mo`ljallangan.

Talabaning O`UM quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqilishi kerak:

- 1) o`quv ma`lumotining maqsadi, tuzilishi, mazmuni va hajmi,
- 2) talabaga DTS tomonidan belgilangan, berilgan sharoitda va o`quv rejasida belgilangan vaqtda ta`lim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi fan bo`yicha ta`lim texnologiyasi.

O`quv fani bo`yicha talabalar mustaqil faoliyatini tashkillashtirish uchun O`UM tuzilishi va mazmunli ko`rsatkichlari:

1. Reja - topshiriq - har bir o`quv mashg`uloti uchun tuziladi. Jadval ko`rinishida bajarilib, quyidagi ma`lumotlarni o`z ichiga oladi:

1.1. Mavzuning nomi, o`quv mashg`uloti shakli va turi.

1.2. O`quv mashg`ulotining tuzilishi olib borish rejasi.

1.3. O`quv mashg`uloti maqsadi.

1.4. Talabani o`quv faoliyati natijalari-ta`lim berish natijasida talaba bajarishi lozim bo`lgan harakatlar. Ular aniq va fe`llarda (...*aytadi*, ....*sanab beradi*, .... *tasniflaydi va h.k*) ifodalanib, olingan natijalarni bir xil ma`noda va haqqoniy baholash, ularni belgilangan maqsadga mos kelishini aniqlash imkonini beradi.

1.5. Mustaqil tayyorgarlik uchun topshiriq. Ular qisqa maslahat va ularni bajarish bo`yicha tavsiyanomalardan iborat bo`lgan-aytib berishlar bilan berilishi mumkin.

1.6. Nazorat shakli: Kuzatuv, o`quv topshiriqlarini bajarish, savol - javob shakli, test va boshq.

1.7. O`quv fan bo`yicha talaba olishi mumkin bo`lgan, eng yuqori ball. O`quv fan bo`yicha talaba olishi mumkin bo`lgan, haqiqiy ball.

2. O`quv-metodik materiallar o`quv mashg`uloti maqsadi va mazmunidan tashqari, ta`lim berish texnologiyasiga muvofiq quyidagilarni o`z ichiga oladi:

2.1. O`quv materiallar: ma`ruzaning qisqa (tayanch) chizma va jadval ko`rinishidagi yozmalari.

2.2. O`quv guruhi uchun topshiriq, ularni bajarishning ko`rsatkich va baholash mezonlari.

2.3. Talabalar o`quv ish jarayonida amal qilishlari lozim bo`lgan axborot beruvchi materiallar: (aqliy hujum, guruhlarda ishlash) qoidasi; (esse, referat yozishga) talablar; (keys va boshq.) materiallar.

2.4. O`zini tekshirish uchun topshiriqlar (test, savol, topshiriq va mashqlar).

Joriy pedagogik nazoratni va talaba tomonidan ko`zlanayotgan ta`limiy maqsadlarga erishish darajasini doimiy o`zi baholashni ta`minlaydi. Oraliq va yakuniy nazoratning savol va topshiriqlarni o`z ichiga oladi. O`quv-metodik materiallar hajmi chegaralanmaydi. Lekin ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli ramsiyashtirilgan bo`lishi kerak.

## O`UMning tuzilishi

O`UM – bu barcha tarkibiy qismlari bosma va elektron va bosma hujjat shaklida tayyorlanadigan fanning o`quv-uslubiy majmuasidir. O`UM o`z ichiga majburiy va qo`shimcha qismlarni qamrab oladi.

Majburiy qism qo`yidagi 4 ta komponentdan iborat:

**1. Dasturiy komponent:** Fan dasturi – uslubiy meyoriy hujjat bo`lib, davlat ta`lim standartining muayyan fan bo`yicha bakalavr (magistr)darajasi va mutaxassisligi bilim, ko`nikma, va malakalariga quyilgan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi;

Fanning ishchi dasturi – uslubiy meyoriy hujjat bo`lib, fan dasturi bo`yicha bakalavr (magistr) bilim, ko`nikma va malakalariga quyilgan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

**2. Fanning mazmunini belgilovchi komponentlar:** Elektron va bosma o`quv qo`llanma (yoki ma`ruzalar matni) – davlat ta`lim standarti va o`quv dasturlariga muvofiq ravishda o`quv fanining to`liq yoki alohida bo`limlarining tizimli bayoniga ega bo`lgan yagona kompyuter dasturi muhitida gipermatnli texnologiya asosida multimedia komponentlaridan foydalangan holda interaktiv muloqot imkoniyatini yaratuvchi, zarur hollarda qo`shimcha dasturiy modularga ega bo`lgan Elektron va bosma o`quv nashri.

Virtual amaliy-laboratoriya – o`tilgan nazariy materiallarni o`zlashtirishga, amaliy bilim va ko`nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan, tadqiqot obyektiga bevosita muloqotga chiqmagan holda turli hil hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali tajriba-sinov o`tkazish imkonini beruvchi maxsus dasturiy vositalar majmuasi.

**3. Metodik komponentlar:** O`qituvchiga mo`ljallangan metodik komponent: Elektron va bosma metodik qo`llanma (yoki ma`ruzalar matni) – pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta`lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron va bosma uslubiy qo`llanmada pedagogik tajriba mashg`ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron va bosma yoki unga o`girilgan shaklda yaratilgan talabalar ishlarini darslar bo`yicha rejalashtirilgan shaklida ko`rsatiladi. Unda mashg`ulotlar uchun texnologik xarita va didaktik materiallar beriladi. Didaktik materiallarga o`qitilishi va o`rganilishi lozim bo`lgan bilimlarni

beruvchi har qanday axborot tashuvchilar tushuniladi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'quv-didaktik materiallar sifatida qo'llaniladigan matnli - vizual vositalar, amaliy mashg'ulotlarda kurs materiallari, uslubiy qo'llanmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar hamda elektron va bosma ta'lim resurslari ro'yxati beriladi.

**4. Baholash komponentlari:** Joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha elektron va bosma test savollar, elektron va bosma topshiriqlar, nazorat ish variantlari, muammoli vaziyatli topshiriqlar, boshqotirmalar, taqdimotlar, kurs ishi mavzulari va h.k.

Elektron va bosma testlar – saqlangan, ishlov berilgan va testlashtiruvchiga kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlashtiruvchi “qog'oz” blankalarni to'ldirib, so'ngra unga kompyuterda ishlov bersa, bular kompyuterli test bo'lib hisoblanmaydi.

Elektron va bosma topshiriqlar - o'qituvchiga ta'lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan xolda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o'zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko'rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar ta'lim oluvchilarga an'anaviy “qog'oz”li va elektron va bosma variantlarida taqdim etiladi.

O'UMning qo'shimcha qismlari elektron va bosma xrestomatiya, elektron va bosma jurnallar, Internet saytlar kabi manbalardan iborat bo'ladi.

#### **O'UM yaratish bosqichlari**

**1-bosqich.** O'UM yaratish rejasi va ijrochilari kafedra majlisida tasdiqlanadi. Fan bo'yicha O'UM yaratishda mualliflar jamoasi tuziladi. Mualliflar jamoasiga fan o'qituvchisi, soha mutaxassislari, Davlat ta'lim standarti va fan dasturlarini ishlab chiquvchilari, elektron va bosma ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha muhandis, dasturchilar va dizaynerlar, metodistlar, psixologlar kiritiladi. Yaratiladigan o'quv-uslubiy majmuaning sifati mualliflarning pedagogik va kasbiy mahoratiga, ularning bilimdonligiga bog'liq bo'ladi.

**2-bosqich.** O'UM tuzilmasini ishlab chiqish. O'UM tarkibiy tuzilishini modulli tizim asosida qurish maqsadga erishishni osonlashtiradi. O'quv

materiallari alohida ajratilgan modullarda beriladi. Modullar avtonom ko'rinishdagi o'quv materiali bo'lib, u mazmuniy va metama'lumotlar qismlaridan tuzilgan. Modulli o'quv materiallarni boshqaruv tizimini hosil qilish uchun modullar orasida o'zaro bog'lanishlar ta'minlanishi lozim. Har bir komponentning mazmuni fan bo'yicha qo'yilgan maxsus talablardan kelib chiqqan holda, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta'lim talablari va tamoyillari asosida ishlab chiqiladi. O'UM yaratishda o'quv materialining o'quv elementlariga bo'linishi va uning tuzilmasini iyerarxiya ko'rinishida ko'rgazmali tasvirlashga yo'naltirilgan o'quv materiali mazmunining modelini ishlab chiqiladi.

**3-bosqich.** O'UMning barcha komponentlaridan ssenariylari va Elektron va bosma versiyalarini yaratish. O'UM komponentining ssenariysi bu – ta'lim bosqichining mazmuni va uning jarayonli qismining turli darajadagi va vazifadagi dasturli tuzilmalar doirasida monitor ekranida aks etuvchi kadrlar bo'yicha taqsimlanishidir. Jarayonli qism mazmuniy qismini ochib berish va namoyish qilish uchun monitor ekranida tasvirlanishi zarur bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Har bir mavzu bo'yicha ssenariylar yaratiladi hamda alohida nazariy ma'lumotlarga, laboratoriya va amaliy ishlariga, seminar mashg'ulotlariga fayl yaratiladi.

**4-bosqich.** O'UM barcha komponentlari bo'yicha yaratilgan ssenariy va fayllarni gipermatn va giperurojaat texnologiyalari orqali dastur tuziladi.

#### *O'UMni foydalanishga tayyorlash va muallifligi*

Tayyor bo'lgan O'UMni foydalanishga tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlarning tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi.

Taqrizdan o'tkazish. Taqriz qilish va mustaqil ekspertizadan o'tkazish jarayoni quyidagi 3 bosqichda amalga oshiriladi:

**I bosqich** – kafedrada taqrizdan o'tkazish O'UM o'qitiladigan kafedra metod kengashi tomonidan o'rnatilgan tartibda o'tkaziladi. Taqriz qilishda avvalo O'UM barcha tarkibiy qismlari to'la ishlab chiqilganligi, mazmunining to'g'ri tuzilganligi, fan taraqqiyotining zamonaviy bosqichi uchun dolzarbli ustuvor mezon sifatida qaraladi.

**II bosqich** – fakultet ilmiy-metodik kengashi tomonidan o'tkaziladigan ekspertiza xulosasiga ko'ra O'UMni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish

to'g'risida qaror qabul qilinadi. Fakultet ilmiy-metodik kengashi fanlar bo'yicha fakultetga tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar o'quv rejalariga kiruvchi fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan O'UMlarning mazmuni va sifatini davriy ravishda nazorat qilib boradi.

**III bosqich** – OTM Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan o'tkaziladigan ekspertiza ishlab chiqilgan O'UMning didaktik, metodik, texnik va dasturiy talablar, shuningdek tayyorlangan gipermatn va multimedia komponentlarining muvofiqlik darajasini baholashga qaratiladi.

Kafedra va fakultet xulosalari hamda OTM Ilmiy-uslubiy kengashi tavsiyasi asosida ishlab chiqilgan O'UMni ta'lim muassasi rasmiy saytida joylashtiriladi.

O'UMni mazmunini to'ldirib borish, qisman qayta ishlash fan sohasida yoki o'quv jarayoniga oid meyoriy hujjatlarda yuz beradigan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda kafedra qarori asosida amalga oshiriladi.

O'UM didaktik, psixofiziologik, metodik, texnik, dasturiy, shuningdek tayyorlangan gipermatn va multimedia komponentlarining muvofiqlik darajasiga ko'ra talablarga javob berishi lozim.

O'UMning dasturiy talablarga, shuningdek tayyorlangan gipermatn va multimedia komponentlarining muvofiqligiga OTM axborot texnologiyalar markazi mas'ul hisoblanadi.

#### **Nazorat savollari**

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi fani o'qituvchisining o'quv-meyoriy hujjatlari.
2. DTS tuzilishi va mazmuni.
3. O'quv rejasi va ishchi dasturlarga qo'yiladigan talablar.
4. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlardan o'quv-metodik komplekslar tayyorlash.
5. Ta'lim mazmunini belgilovchi meyoriy hujjatlar.
6. O'quv dasturiga qo'yiladigan talablar.
7. Namunaviy o'quv dasturining mazmuni.
8. Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishi.
9. Mualliflik o'quv dasturlari

## **TA'LIM JARAYONIDA METODLARNING MOHIYATI. TA'LIM JARAYONIDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH. O'QITISH METODLARINING TASNIFI. METODLARNING TURLARI**



#### **Reja:**

1. Ta'lim jarayonida metodlarning mohiyati.
2. Ta'lim jarayonida turli metodlardan foydalanish.
3. O'qitish metodlarining tasnifi.
4. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlarga qo'yiladigan talablar.
5. Metodlarning turlari
6. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodlari

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:** ta'lim, demokratlashuvi, ta'limning ustuvorligi, metod, vosita, usul, uslub, demokratlashuvi, insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi, milliy yo'nalganligi.

#### **Ta'lim jarayonida metodlarning mohiyati**

**Ta'lim metodlari** - bu o'qituvchining o'quvchilarga bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni berish jarayonida ishlatadigan usul va vositalar to'plamidir. Ta'lim jarayonida metodlar o'quvchilarni ta'limga jalb qilish, ularni o'rgatish va rivojlantirishning asosiy vositalaridir. Har bir metod o'ziga xos pedagogik maqsadga xizmat qiladi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida metodlarning mohiyati o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faoliyatning tashkil etilgan shakliga, bilim va ko'nikmalarni egallash, ularni ongli va faol o'zlashtirish yo'llariga asoslanadi.

Ta'lim metodlari o'qituvchi tomonidan ma'lumotlarni yetkazish va o'quvchilar tomonidan ularni qabul qilish, tushunish, tahlil qilish, qo'llash, umumlashtirish, baholash jarayonlarini tashkil etadi. Shuningdek, bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muammoga yondashuv, ijtimoiy moslashuv, o'z fikrini asoslash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Metodlarning mohiyati, avvalo, ularning didaktik vazifani bajarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, metodlar ta'lim mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi, bilim olishni ongli va faol jarayonga aylantiradi. Har bir metod konkret pedagogik vazifani hal qiladi: masalan, tushuntirish – yangi materialni bayon qilish, amaliy mashq – ko'nikmani mustahkamlash, suhbat – fikrni chuqurlashtirish, muammoli metod – tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, o'yin metodlari – qiziqishni rag'batlantirish, loyihaviy metodlar – mustaqil faoliyatni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, metodlar faqat o'qituvchining faoliyat shakli emas, balki ta'lim oluvchining faol ishtirokini, o'zlashtirish jarayonini yo'naltiruvchi vositadir.

Ta'lim metodlari o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, o'quv materialining murakkablik darajasi, ta'limning shakli va shakllanish bosqichiga qarab tanlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko'proq vizual, amaliy, o'yin, faoliyatga asoslangan, mimik va dramatik usullar, ilg'or yoshlar uchun esa muammoli vaziyatlar, mustaqil tadqiqotlar, analitik ishlanmalar samarali hisoblanadi. Metodlar doirasida faqat bilim olish emas, balki ijtimoiy, hissiy, axloqiy, estetik tarbiya ham amalga oshiriladi. Metodlar orqali bola olgan bilimlarini real hayotga tatbiq etadi, muloqotga kirishadi, ijtimoiy holatlarni tahlil qiladi, o'zining nutqiy, psixologik va aqliy faoliyatini rivojlantiradi.

Ta'lim metodlarining zamonaviy tasnifida an'anaviy va innovatsion metodlar farqlanadi. An'anaviy metodlar – ma'ruza, suhbat, ko'rsatish, mashq, amaliy topshiriq; innovatsion metodlar – klaster, insert, brainstorming (aqliy hujum), fishbone, problemali vaziyat, loyiha metodi, keys-stadiy, situatsion analiz, refleksiya kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Bu metodlar ta'limning texnologik va integrallashgan asoslarini tashkil qiladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim texnologiyalari sharoitida metodlar bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro bog'langan, o'quvchining faolligini ta'minlovchi vositadir.

Metodlarning yana bir mohiyatli jihati – ular pedagogik maqsadning bosqichma-bosqich amalga oshirishini ta'minlaydi. Har bir darsda qo'llaniladigan metod o'zining maqsadga yo'naltirilganligi, natijadorligi, rivojlantiruvchi funksiyalarining uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Metodlar yordamida bilimlar beriladi, ularga nisbatan munosabat shakllanadi, bilimlar amaliyotda qo'llanadi, yangi bilimlar hosil qilinadi. Bu jarayonda o'qituvchi – yo'naltiruvchi, motivator, fasilitator bo'lib, o'quvchi esa bilim egalovchi emas, faol ishtirokchi rolida bo'ladi. Shu sababli, metod tanlashda faqat o'qituvchi uchun qulaylik emas, balki o'quvchining aqliy, hissiy, jismoniy va ijtimoiy faolligini hisobga olish muhimdir.

Metodlar orqali ta'limning har bir bosqichi izchil va tizimli amalga oshiriladi. Ular o'quvchilarni faollikka undaydi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, o'rgangan bilim va ko'nikmalarni turli sharoitlarda qo'llay olish salohiyatini shakllantiradi. Shunday qilib, ta'lim metodlari – bu ta'lim jarayonining asosi, mazmunni o'zlashtirishning vositasi, pedagogik maqsadga erishish yo'li, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlikning tashkilotchisidir.

#### **Ta'lim jarayonida turli metodlardan foydalanish**

Ta'lim jarayonida turli metodlar o'qituvchining o'quvchilarga bilimlarni taqdim etish va ular bilan interaktiv ishlashda qo'llaniladi. Turli metodlardan foydalanish, o'quvchilarning turli xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'limning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

1. **An'anaviy metodlar:** Ushbu metodlar o'qituvchining boshqaruvi ostida o'quvchilarga ma'lum bir bilimlarni berish jarayonini tashkil qiladi. *Masalan*, tushuntirish, ko'rsatish, mulohaza qilish kabi metodlar.

2. **Innovatsion metodlar:** Yangi pedagogik texnologiyalar, o'yinlar, loyiha asosidagi o'qitish, multimedia vositalari, interaktiv metodlar. Bu metodlar o'quvchilarni o'z faoliyatiga jalb qilish, qiziqarli va samarali o'qitishni ta'minlash uchun ishlatiladi.

3. **Interaktiv metodlar:** O'quvchilarni o'zaro muloqotga, bahs-munozaraga, guruh ishlariga jalb qilish. Bu metodlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini, ijodkorligini va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **O'qitish metodlarining tasnifi**

O'qitish metodlarini tasniflashning turli usullari mavjud. Ularning ba'zilar quyidagicha:

1. Pedagogik maqsadlar va vazifalarga qarab tasniflash.

2. O`quvchilar bilan interaktivlik darajasiga qarab.

3. Metodning ishlash faoliyatiga qarab.

4. O`quv jarayonining tashkil etilishiga qarab.

### O`qitish jarayonida qo`llaniladigan metodlarga qo`yiladigan talablar

1. **Ta`lim maqsadlariga moslik:** Har bir metod ta`limning aniq maqsadlariga erishishni ta`minlashi kerak. *Masalan*, bilim berish metodlari yangi bilimlarni o`zlashtirishga, faol metodlar esa o`quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi.

2. **O`quvchilarni faollashtirish:** Metodlar o`quvchilarning faol ishtirokini ta`minlashi kerak. Faol metodlar o`quvchilarga o`z bilimlarini mustahkamlash va yangi ko`nikmalarni o`zlashtirishda yordam beradi.

3. **O`quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish:** Har bir o`quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, o`rganish uslublari turlicha bo`ladi. Shuning uchun metodlar o`quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.

4. **Tadqiqot va tahlil qilish:** Metodlar o`quvchilarning tahlil qilish, muammolarni hal qilish va izlanish ko`nikmalarini rivojlantirishi kerak. Misol uchun, loyiha asosida ishlash, guruh muhokamalari, muloqot qilish.

5. **Amaliyotga yo`naltirilganlik:** O`qitish metodlari o`quvchilarga amaliy ko`nikmalarni ham berishi zarur. Masalan, amaliy mashg`ulotlar, tajriba qilish, ko`nikmalarni rivojlantirish.

6. **Motivatsiya yaratish:** Metodlar o`quvchilarda o`qishga bo`lgan qiziqish va motivatsiyani oshirishi kerak. O`yin asosida o`qitish yoki real hayotga bog`liq vazifalar yordamida o`quvchilarni motivatsiya qilish mumkin.

### O`qitish metodlarining turlari

1. **Tushuntirish (narrativ) metodlari:** O`qituvchining asosiy vazifasi o`quvchilarga ma`lumotni tushuntirish va ularni tinglashdir. Bu metod an`anaviy o`qitishda keng qo`llaniladi.

o **Leksiyalar:** O`qituvchi yangi mavzu bo`yicha keng tushuntirishlar beradi.

o **Tushuntirish:** Darsda o`qituvchi o`quvchilarga mavzu yoki kontentni izohlaydi.

2. **Ko`rsatish metodlari:** O`qituvchi o`quvchilarga qanday amalni bajarishni ko`rsatadi.

o **Praktik mashg`ulotlar:** O`qituvchi amaliy ishlarni ko`rsatadi, bolalar esa amalda bajaradilar.

o **Ko`rgazmalar va ekskursiyalar:** O`quvchilar o`rganayotgan mavzuni real hayotda ko`rishadi.

3. **O`yin metodlari:** Bu metod o`quvchilarni ta`lim jarayoniga faol jalb qilishga yordam beradi. O`yinlar o`quvchilarga qiziqarli va samarali tarzda bilim beradi.

o **Rollar o`yinlari:** O`quvchilar har xil rollarda ishtirok etadilar, shu orqali yangi ko`nikmalarni o`rganadilar.

o **Didaktik o`yinlar:** O`quvchilarga bilim va ko`nikmalarni o`yin orqali o`rgatish.

4. **Baholash metodlari:** O`quvchilarning o`rganish jarayonini baholash va kuzatish.

o **Sinovlar va testlar:** O`quvchilarning bilimlarini tekshirish va tahlil qilish uchun ishlatiladi.

o **Baho berish:** O`qituvchi o`quvchilarning ishlarini baholab, fikr bildiradi.

5. **Izlanish metodlari:** O`quvchilarni o`z-o`zini o`rganishga va mustaqil ishlashga yo`naltiradigan metodlar.

o **Loyihalar:** O`quvchilar ma`lum bir mavzu asosida mustaqil ish olib boradilar.

o **Eksperimentlar:** O`quvchilar yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlashga undovchi metod.

Ta`lim jarayonida metodlarning mohiyati juda katta, chunki ular o`quvchilarning bilim olishini, rivojlanishini va o`ziga xos qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Turli metodlardan foydalanish, ta`limni qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini yaratadi. O`qitish metodlarining tasnifi, ularning turli xil variantlarini to`g`ri tanlash va qo`llash, o`quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

“Metod” so`zining yunoncha tarjimasida “tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo`li” kabi ma`nolarni anglatadi. Filosofiya lug`atida ushbu tushuncha umumiy tarzda “maqsadga erishish usullari” deya sharhlangan.

Ayni vaqtda pedagogik manbalarda "ta'lim metodi" tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Mazkur o'rinda ularning ayrimlarini keltiramiz:

Ta'lim metodi – zamonaviy darajada o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir (*V.I.Zagvyazinskiy*).

Ta'lim metodlari – o'quv jarayonining murakkab tarkibiy unsuri (komponenti) bo'lib, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa va bog'lanishlarni yuzaga keltiradi (*G.I.Shukina*).

Ta'lim metodlari deganda o'qituvchining o'rgatuvchanligi va ta'lim oluvchilarning o'quv materialini egallashga yo'naltirilgan turli didaktik masalalar yechimini topishga oid o'quv bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi (*I.F.Xarlamov*).

Ta'lim metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega sharakatlar tizimidir (*P.I.Podlasiy*).

Ta'lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi:

- maqsadli tarkib;
- faoliyatli tarkib;
- ta'lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va ta'lim oluvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

"Ta'lim metodi" atamasi bilan birga ko'p hollarda "metodik usul" (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi.

Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- + Motivatsiyali;
- + Rivojlantiruvchi;
- + Tashkiliy;
- + Tarbiyaviy;
- + Ta'limiy.

*Tarbiya metodlarining asosiy funksiyalari:*

- + Metodik usullar;
- + Masalani o'rganish;
- + Namoyish (ko'rgazmali, obyektiv – tajriba, amaliy va aqliy harakatni namoyish etish, hokazolar);
- + Yo'l-yo'riq ko'rsatish;
- + Topshiriq berish;
- + Metodik usullarning turlari.

Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lemi, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi. Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim obyekt ta'lim metodlarining tasnifidir.

Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

1. Bilimlarni egallash metodlari.
2. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari.
3. Bilimlarni qo'llash metodlari.
4. Nazorat (bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va tekshirish) metodlari

1. Materialni og'zaki bayon qilish (hikoya, tushuntirish, ta'lim muassasasi ma'ruzasi). Ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga

amalgaga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining ta'lim oluvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

2. Suhbat. Ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: ular e'tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid obyektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat. O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

3. Darslik (umuman, kitob) bilan ishlash (umumlashma va xulosalarni anglash, ularni xotirada saqlashga xizmat qiladi). Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib bosma matn xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, ta'lim oluvchilarga darslik bilan ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish kabi ko'rinishlarda aks etadi.

4. O'qituvchilarning kuzatuv (sinfda va sinfdan tashqari (shu jumladan, sayohat va ekskursiyalar) jarayonlarda). Ta'lim oluvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirish holati va hodisalarni kuzata borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'yicha ularni qismlarga taqsimlab har bir ta'lim oluvchining o'ziga xos, o'xshash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib muayyan predmet (yoki jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, obyektini belgilash, umumiy rahbarlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

5. Laboratoriya ishlari. Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi. Ta'lim oluvchilar hodisalarni kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qiladilar. Bilimlar manbai kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir.

6. Mashq (aqliy va faoliyatli mashqlar). Ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xshash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi.

7. Ijodiy mashq. Ushbu metod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan mustaqil yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bilimlar manbai va materiali sifatida avval egallangan ijodiy ishlar tajribasi, mavjud bilimlar, kuzatuvlar, shaxsiy tajriba, o'qilgan hikoya, ijtimoiy-foydali ishlarni boshqarish kabilar qayd etiladi.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati xarakteriga mos ta'lim tasnifi yaratildi.

I.Y.Lerner va M.N.Skatkinlarning qarashlariga ko'ra:

1. Izohli-tasvirli.
2. Reproaktiv.
3. Evristik yoki qisman-izlanuvchan muammoli bayon.
4. Tadqiqotchilik.

Ushbu metodlar, mualliflarning ta'kidlashlaricha, bir-biridan ta'lim oluvchilarning ta'lim mazmuni turlarini o'zlashtirishda amalga oshadigan bilish faoliyatlari xakteri va ta'lim oluvchilarning xilma-xil faoliyatlarini tashkil etuvchi o'qituvchi holati bo'yicha farqlanadi.

Izohli-tasvirli ta'lim metodlari (boshqa nomlanishi axborotli repsepsiya)ning mohiyati: odatda nazariy bilimlar tayyor holda uzatiladi, ta'lim oluvchilar esa ularni qabul qiladilar (repsepsiya). Bu yo'lda turli ta'lim vositalari (shu jumladan, ko'rgazmali vositalar)dan foydalaniladi. O'qituvchi faoliyati bunda nafaqat axborotlarni uzatish, balki ularning ta'lim oluvchilar tomonidan qabul qilinishini ham tashkil etishdan iborat bo'ladi.

#### **M.I.Maxmutovning binarli ta'lim metodlari**

*Ta'lim metodlari:*

1. Axborotli-ma'lumotli.
2. Tushuntiruvchi.
3. Yo'riqli-amaliy.

4. Tushuntirish-undovchi.

5. Undovchi.

*O`qish metodlari:*

1. Bajaruvchi.

2. Reproduktiv (nomahsul).

3. Produktiv (mahsuldor)-amaliy.

4. Qisman izlanuvchi.

5. Izlanuvchi

*Ta`lim metodlarining tasnifi:*

1. Axborotli-malumotli va bajaruvchi.

2. Tushuntiruvchi va reproduktiv (nomahsul).

3. Yo`riqli-amaliy va produktiv (mahsuldor)-amaliy.

4. Tushuntiruvchi-undovchi va qisman izlanuvchi.

5. Undovchi va izlanuvchi.

Ta`lim metodlari turli shakllar hamda xilma-xil ta`lim vositalari yordamida joriy etiladi. Ta`lim shakllari ta`lim jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy ko`rinishidir. Bugungi kunda ta`lim muassasalarida quyidagi ta`lim shakllaridan samarali foydalanib kelinmoqda: *ma`ruza, seminar, amaliy mushg`ulot, uchrashuv, taqdimot, sayohat, o`quv konferensiyasi va boshqalar.*

Ta`lim jarayonida ta`limning samaradorligini ta`minlovchi muhim elementlardan biri sifatida ta`lim vositalari e`tirof etiladi. Ta`lim vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (*dioproyektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televideniye, kompyuter, audio hamda video magnitafonlar*), laboratoriya jihozlari (*kolbalar, probirkalar, kimyoviy reaktivlar, mikroskop*), xarita, maketalar, diagrammalar, plakatlari, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalaniladi.

N.S.Sayidahmedov tomonidan asoslangan ta`lim metodlari tasnifi asosida didaktik jarayon nazariyasi yotadi. Ma`lumki, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o`zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi:

1) motivatsion bosqich;

2) o`quv faoliyati;

3) boshqaruv.

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta`lim metodlari tizimi nazariyamaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o`quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Ushbu tizim bir qarashda akademik Y.K.Babanskiy tomonidan asoslangan ta`lim metodlari tizimiga o`xshash. Biroq, Y.K.Babanskiy tasnifiga ko`ra ta`lim jarayoniga nisbatan kibernetik yondashuv maqsadga muvofiq, unga ko`ra har qanday murakkab faoliyat, shu jumladan, ta`limiy faoliyat ham quyidagi uchta tarkibiy qismdan iboratdir:

1) tashkiliy;

2) rag`batlantiruvchi;

3) nazorat.

Ana shu asosida ta`lim metodlari quyidagicha guruhlanadi:

1. O`quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.

2. O`quv-bilish faoliyatini rag`batlantirish va motivlash metodlari.

3. Nazorat va o`z-o`zini nazorat metodlari.

Didaktik jarayon nazariyasi asosida ko`rilgan o`qish metodlarining tasnifi kichik guruhlar tarkibi, soni va unga kiritilgan metodlar nomenklaturasi hamda funksiyalari bilan kibernetik yondashuvli tizimdan tubdan farqlanadi va o`quv-tarbiya jarayonining metodik jihatdan birmuncha yuqori darajasini ta`minlaydi.

Ta`lim sifati va samaradorligini ta`minlashda ko`rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko`rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko`rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko`rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta`minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo`nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma`lum bo`ladiki, shaxs tomonidan o`zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko`rish retseptorlari yordamida o`zlashtiriladi. Demak, o`zbek xalqi tomonidan ko`p bora qo`llaniladigan "Yuz marta eshitgandan bir marta ko`rgan yaxshi" maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Eng asoslangan o`qitish metodlari tasniflariga quyidagilar kiradi:

**1. An`anaviy metodlar.** Bu metodlarning ibtidosini ilk falsafiy va pedagogik tizimlar tashkil etadi. Hozirgi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: amaliy, ko`rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash va video metodlar.

**2. Maqsadiga ko`ra metodlar tasnifi:** (M.L.Danilov, B.P.Yesinov)

- bilimlarni egallash;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- bilimlarni qo'llash;
- ijodiy faoliyat;
- mustahkamlash metodlari;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.

Oliy ta'lim muassasalaridagi didaktik tamoyillar tizimiga quyidagilar kiradi:

*ilmiylik, qulaylik, izchillik, uzviylik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, onglilik, faollik va mustaqillik, ko'rgazmalilik, mustahkamlik, guruh qilib o'qitish hamda unda individual yondashishni qo'shib olib borish, o'qitishning tarbiyalovchi va takomillashtiruvchi xarakteri, o'qitishning kasbiy yo'naltirilganligi.*

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

- Ta'lim tamoyillarining ahamiyati nimada?
- Ta'limning ilmiylik tamoyili mohiyatini qanday tushunasiz?
- Ta'limda nazariya bilan amaliyotning bog'lik bo'lishi tamoyilini mutaxassisligingizga bog'lab tushuntira olasizmi?
- Ta'limni tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan foydalanishning pedagogik jarayondagi ahamiyati nimadan iborat?
- Ta'lim jarayonining ko'rsatmali bo'lishi ta'lim samarasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- Bilimlarni puxta va tizimli o'zlashtirib olish tamoyillariga misollar keltiring.
- Ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy hususiyatlarini hisobga olish tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
- O'qitish metodlarining ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ahamiyati qanday?
- Uslub va vosita nima?
- Uslub va vosita larning mohiyatini ochib bering.
- O'qitishning og'zaki metodi qanday turlarga bo'linadi?

## **METODIKA FANLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIIY ASOSLARI**



### **Reja:**

1. Metodika fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
2. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari
3. Pedagogik texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari.
4. Pedagogik texnologiyalarning metodikadan farqi.

**Tayanch so'z va iboralar:** pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, didaktik printsiplar, metodika fanlari, interfaol usullar, ilmiy asoslangan yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiya yondashuvi, texnologik xaritalar, bolalar rivojlanishi.

### **Metodika fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish**

**Pedagogik texnologiyalar** - bu ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish va o'qituvchining ishini yuqori sifatli amalga oshirish uchun mo'ljallangan metodik vositalar, yondashuvlar va resurslardir. Maktabgacha ta'lim metodikasi, ta'limning dastlabki bosqichlari, bola rivojlanishini, o'qitish va tarbiyalashning samarali usullarini o'rganish va qo'llashda pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida muhim ahamiyatga ega.

**Metodika fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish**, ta'lim jarayonini yuksaltirish va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashni ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta'limda o'qitish jarayonining sifatini yaxshilash, o'quvchilarning intellektual va hissiy rivojlanishini ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo`nalishlari:

1. **Interaktiv metodlar va texnologiyalar:** Interaktiv pedagogik texnologiyalar o`quvchilarning faol ishtirokini ta`minlaydi. Bu metodlar o`quvchilarga o`z bilimlarini amalda qo`llash, guruh ishlarida faol ishtirok etish, va masalalarni birgalikda hal qilish imkonini beradi.

o **Ko`rsatuv va o`yin asosidagi texnologiyalar:** Ko`rgazmalar, virtual mashg`ulotlar va o`yinlar pedagogik texnologiyalar sifatida faol qo`llaniladi. O`quvchilarning qiziqishini oshirish va darslarni yanada samarali qilish uchun bu metodlar keng qo`llaniladi.

2. **Kompyuter texnologiyalari:** Kompyuter yordamida ta`limni modernizatsiya qilish, multimedia vositalari (audio, video, animatsiyalar) va interaktiv dasturlar orqali o`quvchilarning tushunchalarini rivojlantirish.

o **Multimedia vositalari:** O`quvchilar uchun vizual va eshitish materiallarini birgalikda qo`llash orqali ta`limni samarali tashkil etish mumkin. Masalan, video darslar, interaktiv slaydlar, elektron kitoblar.

3. **Loyiha asosidagi ta`lim:** O`quvchilarga real muammolarni hal qilishni o`rgatish, ularni o`zlarining fikrlarini va ijodkorliklarini rivojlantirishga undovchi pedagogik texnologiya. Bu metod o`quvchilarning ilmiy, ijtimoiy, va amaliy ko`nikmalarini rivojlantiradi.

o **Loyiha metodlari:** Loyiha asosida o`quvchilar ma`lum bir mavzu yuzasidan mustaqil ish olib boradilar. Bu usul maktabgacha ta`limda, o`quvchilarning tasavvur va ijodkorligini rivojlantirishda samarali bo`ladi.

4. **Masofaviy ta`lim texnologiyalari:** Internet va zamonaviy texnologiyalar yordamida o`qitish. Masofaviy ta`lim o`quvchilarga uyda yoki boshqa joylarda ta`lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu pedagogik texnologiya bolalar va o`qituvchilarning ta`limda ishtirok etishini osonlashtiradi.

*Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari*

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari o`qitish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar va metodologiyalarni ishlab chiqadi. Ilmiy asoslar pedagogik texnologiyalarning samarali ishlashini ta`minlash va o`qituvchining pedagogik amaliyotini yuqori darajaga ko`tarishni o`z ichiga oladi.

1. Pedagogik texnologiyalarni o`rganish va ishlab chiqish

Pedagogik texnologiyalar o`qitishning zamonaviy shakllarini, usullarini va vositalarini aniqlashni ta`minlaydi. Bu texnologiyalar o`quvchilarning psixologik va intellektual rivojlanishiga mos kelishi, ta`limda erishiladigan natijalar sifatli bo`lishi uchun o`rganilishi kerak.

• **Pedagogik texnologiyalarni ilmiy asoslash:** Pedagogik texnologiyalar o`quv jarayonining samaradorligini o`lchash, baholash va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ularning o`quvchilarning psixologik va kognitiv xususiyatlariga mosligini ilmiy asoslash zarur.

2. O`qitish metodlarini izlash va yangilash

Pedagogik texnologiyalar o`qitish metodlarini yangilash va modernizatsiya qilishda yordam beradi. O`qitish jarayonida yangi metodlar va vositalarni qo`llash o`quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularga yanada samarali ta`lim berishga imkon yaratadi.

• **Metodik yondashuvlar:** Pedagogik texnologiyalar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu, o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi interaktiv munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. O`qitish jarayonining tizimlashtirilgan yondashuvi

Pedagogik texnologiyalar o`quv jarayonini tizimli ravishda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o`qituvchi o`quvchilarni kerakli metodlar, vositalar va resurslar bilan ta`minlab, ta`limning samaradorligini oshiradi.

• **Tizimli yondashuvlar:** O`quv jarayonini tizimlashtirish pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Metodika fanlarida o`qitish jarayonini tashkil etishda, o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni yaxshi tashkil qilish, ilmiy metodlarni qo`llash zarur.

4. Innovatsion pedagogik modellar

Pedagogik texnologiyalar yangilanish va innovatsiya bilan bog`liqdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o`qitish jarayonini innovatsion tarzda o`zgartirishga qaratilgan, shu bilan birga, o`quvchilarning individual xususiyatlariga moslashadi.

• **Innovatsion pedagogik texnologiyalar:** Ta`limning interaktiv va innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilishi o`quvchilarga yuqori sifatli ta`lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalar o`qituvchi va

o`quvchi o`rtasidagi aloqani mustahkamlaydi va o`qitish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

#### 5. Pedagogik psixologiyaning integratsiyasi

Pedagogik texnologiyalar o`quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. O`quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga va o`rganish uslubiga mos pedagogik texnologiyalarni qo`llash orqali ta`lim jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

• **Psixologik yondashuvlar:** Pedagogik texnologiyalar o`quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqiladi. Bu texnologiyalar o`quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodika fanlarini o`qitish jarayonini samarali tashkil etishda katta rol o`ynaydi. Ular o`qitishning sifatini yaxshilash, o`quvchilarning faolligini oshirish va darslarni yanada interaktiv qilish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik texnologiyalar o`quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda, ta`limning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar va innovatsion pedagogik modellarga asoslanadi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayonining tizimlashuvi, individual yondashuvni qo`llash va innovatsiyalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

**Pedagogik texnologiya nima?** Texnologiya so`zi o`zi nimani anglatadi? Bu so`z fanga qachon kirib keldi? Yangi pedagog texnologiya ta`limning ma`lum maqsadga yo`naltirilgan shakl, usul va vositalar tizimidir. Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog`liq xolda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha 2 so`zdan "Texnos" – san`at, hunar va "Logos" – fan so`zlaridan tashkil topib "Hunar fani" ma`nosini anglatadi. Shu ma`noda texnologiyani ma`lum ma`noda san`atga qiyos qilinadi. Chunki san`at intuitsiyaga asoslanadi, texnologiya esa fanga asoslanadi. Lekin juda ko`p faoliyat sohalari dastlab san`atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi.

Texnologiya - shaxsni o`qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini o`zida jo`qilgan va yakuniy natijani ta`minlaydigan va kafolatlaydigan pedagogik faoliyatdir. Texnologiya tushunchasi regulyativ

(tartibga solib turuvchi) ta`sir etish kuchiga ega bo`lib, nazariyachi- olimlar va o`qituvchilarni yangicha tafakkurlashga, erkin ijod qilishga undaydi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko`lamli, serqirra tushuncha bo`lib, u ta`lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda barcha fanlarda o`z o`rniga ega.

Ta`lim - tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o`tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo`nalishlari shu faoliyatdan ko`zda tutilgan maqsadlarni to`liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya`ni texnologiyaga aylanib bormoqda. Shu asosda ta`lim-tarbiya sohasida so`nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyada esa ishlov beriladigan material o`quvchi (ta`lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo`lib, ularga o`qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma`lum maqsadlarga erishish yo`lida har turli ta`sirlar o`tkaziladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo`lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o`tib kelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o`rtasigacha "ta`limda texnologiya" deb qo`llanilib, o`quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o`rtalarida AQShda qo`llana boshlagan. Bunda "pedagogik texnologiya" va "ta`lim texnologiyasi" ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o`qitishga nisbatan qo`llangan edi.

Oradan vaqt o`tishi davomida shu ifodalarni qo`llash darajasi kengayib borishi natijasida ularning ma`nolari ham tegishlicha o`zgarib bordi. Hozirga kelib esa pedagogik texnologiya ifodasining zamonaviy-ilmiy asoslangan yagona ta`rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikrlar va xulosalar asoslab berildi.

50-yillar o`rtasidan 60-yillargacha "ta`lim texnologiyasi" ifodasi qo`llanilib, bunda programmalashtirilgan ta`limni nazarda tutilgan.

70-yillarda "pedagogik texnologiya" ifodasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan.

1979-yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: "Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, ta'minlash, muammoning yechimini baholash va boshqarish uchun odamlar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan kompleks, integrativ jarayondan iborat..".

80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan.

Shu aytilganlar asosida pedagogik texnologiya bir jihatdan o'quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalab, uni ta'limdagi, o'qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim texnologiyasi yoki pedagogik texnologiya degan nom o'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

### **Pedagogik texnologiyaning asosiy yo'nalishlari**

Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

Hozirgi an'anaviy ta'lim. XVII asrda Y.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf - dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlrida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: Hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar.

O'quv materialini didaktik jixatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari xususiy (o'quv fanlari) pedagogik texnologiyalari, alternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud.

Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yo'nalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

*Empirik* - (tajriba) sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

*Kognitiv* - (bilishga oid) atrofda olam to'g'risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U taba-qalash (tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

*Evristik* - (haqiqatni topish) yo'naltiruvchi savollar berish yo'li bilan ta'lim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o'quv-izlanish ta'lim metodi. Optimallashtirish (ko'p variantlardan eng ma'qulini, mosini, muvofiq'ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

*Kreativ* - (ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

*Inverisoy* - (almashtirish) axborotlarni turli tomondan o'rganish, o'rni almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

*Integrativ* - (yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko'p kichik qismlarning o'zaro ajralmas bog'liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlash.

*Adaptiv* - (moslashtirish) axborotlarni o'rganish va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

*Inklyuziv* - (tenglik) o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi.

### **Pedagogik texnologiya turlari**

Hozirda pedagogik texnologiyalarining turlari ko'p bo'lib, ular bir-biridan, yuqorida aytilgandek ayrim aoldahida yo'nalish va maqsadlarga asosiy e'tibor qaratilgani bilan farqlanadi.

Pedagogik texnologiya jarayonlarini o'rganishning soddalashtirilgan tarkibini quyidagicha tushunish mumkin:

*Tushuntirish* - axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon.

*Tushunish* - axborotning ma'no mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

*O'rgatish* - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchini o'zi o'rgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon.

*O'rganish* - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'zlashtirish tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no mazmuni undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar xosil qilish.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi 3 ta darajaga ajratiladi:

O'rgatilgan bilim ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;

Ularni amali faoiyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoiyatiga ega bo'lish;

Ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning shammaida sham bir dek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayoning tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvch ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishda iborat bo'lib ular o'zaro quydagicha ketma - ketlikda amal qiladi.

### **Pedagogik texnologiya ko'rinishlari**

Pedagogik faoliyatda "Texnologiya" atamasining qo'llana boshlashi bilan pedagogik amaliyot, uning nazariy jihatlar hamda ular haqidagi bildirilayotgan mulohazalar birmuncha yuqori ilmiy darajaga ko'tarilmoqda.

Pedagogik texnologiya hozirgi zamondagi didaktika va pedagogika taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo'lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin.

Pedagogik texnologiya darajalari. Yuqorida aytilganlar asosida pedagogik texnologiyalarni umumpedagogik, xususiy (o'quv fanlari) va kichik texnologiyalardan iborat uchta darajaga ajratiladi.

Umumpedagogik texnologiya turli darajadagi tizimlarni ifodalaydi. U ayrim hududdagi, tumandagi, ta'lim muassasasidagi yoki ta'limning ayrim pog'onasidagi barcha ta'lim - tarbiya jarayoniga tegishli bo'ladi. Umumpedagogik texnologiya o'z hududi yoki ta'lim muassasasidagi ta'lim - tarbiyaviy maqsadlar, mazmun, vositalar, boshqaruv shakli va usullari, o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatining algoritmlarini belgilaydi.

Pedagogik texnologiya tasnifi. Maktablar ishining hozirgi nazariyasi va amaliyotida o'quv-tarbiya jarayonining ko'plab variantlari mavjud. Har bir muallif hamda amaliyotchi pedagogik jarayonga o'zining individual ulushini qo'shadi.

Lekin ko'p texnologiyalar o'z maqsadlari, mazmuni, qo'llanadigan metodlari va vositalari bo'yicha yetarlicha ko'p o'xshashliklarga ega va ularni shu umumiy belgilariga ko'ra tasnif qilish mumkin.

*Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko'ra tasnif qilinadi:*

- # qo'llanish darajasiga ko'ra;
- # falsafiy asosi bo'yicha;
- # asosiy rivojlantiruvchi omili bo'yicha;
- # o'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha;
- # shaxsiy belgi-sifatlariga ko'ra yonalganligi bo'yicha;
- # mazmuni xususiyatlari bo'yicha;
- # boshqaruv turi bo'yicha;
- # bolaga yondashuv bo'yicha;
- # ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha;
- # ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha.

Shu bilan bir vaqtda, jamiyatning rivojlanishi alohida mamlakatlarda va umuman jahonda insonparvar falsafiy asosdagi yangi pedagogik texnologiyalarni yaratdi.

Pedagogik texnologiyalarni tasniflashda ularning eng yaqqol ajralib turadigan xususiyatlariga asoslaniladi. Aslida esa har bir pedagogik texnologiya sof holda uchramaydi, ularda boshqalariga xos bo'lgan elementlar albatta mavjud bo'ladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Pedagogik texnologiya fanining paydo bo'lish davrini izohlab bering.
2. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadal rivojlanishi davrida o'qitish tizimiga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
3. "Jamiyat-ta'lim" tizimining rivojlanish bosqichlarini izohlab bering.
4. "Pedagogik texnologiya"ning ta'rifini tushuntirib bering.
5. "Pedagogik texnologiya" o'quv fanining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
6. O'quv materialni to'la o'zlashtirish tamoyilini tushuntirib bering.
7. Pedagogik texnologiyaning tamoyillarini aytib bering.
8. Ilmiylik tamoyilini izohlab bering.
9. Loyihalanish tamoyilini izohlab bering.
10. Tizimlilik tamoyilini izohlab bering.

## **TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYA TURLARI**



#### **Reja:**

1. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
2. Keys-stadi metodi.
3. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiya turlari.
4. Turli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish

**Tayanich so'z va iboralar:** avtoritar o'qitish texnologiyasi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi, insonparvarlik, hamkorlik, erkin tarbiyalash, muammoli o'qitish texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi.

#### **Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish**

**Innovatsion texnologiyalar** - bu pedagogik jarayonni yangilash, samarali tashkil etish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun zamonaviy usullar va vositalarni qo'llashni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi, o'quvchilarning ijodkorlik, mustaqillik va bilimni amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Keys-stadi metodi** (case-study method) - bu o'quvchilarga real yoki o'zlashtirilgan bilimlar asosida xususiy holatlarni tahlil qilish va yechimini topish vazifasini qo'yadigan metoddir. U o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish, va jamoada ishlash kabi ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi.

Keys-stadi metodining asosiy jihatlari:

1. **Real holatlar:** O'quvchilarga amaliyotga asoslangan, real hayotdan olingan muammolar yoki holatlar taqdim etiladi. Bular o'quvchilarning tahlil qilish va fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

2. **Jamoaviy ishlash:** O`quvchilar guruhlar bilan ishlashadi va muammoni birgalikda yechishadi. Bu metod o`quvchilarda hamkorlik, fikr almashish va jamoada ishlash ko`nikmalarini rivojlantiradi.

3. **Tanqidiy fikrlash:** O`quvchilar turli yechimlar va fikrlarni tahlil qilib, eng to`g`ri variantni tanlaydilar. Bu metod o`quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini rivojlantiradi.

4. **Shaxsiy tajriba:** O`quvchilar o`z shaxsiy tajribalariga tayanib, o`rganilgan bilimlarni real hayotda qo`llashga harakat qiladilar. Bu jarayon o`quvchilarga bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi.

Keys-stadi metodining qo`llanishi:

• **Dars jarayonida:** O`qituvchi o`quvchilarga real hayotdagi holatlar va vaziyatlarni taqdim etib, ularni tahlil qilishga va muammoni hal qilishga undaydi.

• **Tadqiqot asosida:** O`quvchilar o`zlarining fikrlari va qarorlarini asoslab, holatni yechish uchun ilmiy tadqiqot olib boradilar.

O`qitish jarayonida qo`llaniladigan texnologiya turlari

O`qitish jarayonida qo`llaniladigan texnologiyalar keng turdagi metodlar va vositalarni o`z ichiga oladi. Har bir texnologiya o`quvchilarning o`rganish uslubiga mos ravishda qo`llanadi va ta`limning samaradorligini oshiradi.

1. Kompyuter texnologiyalari:

• **Multimedia vositalari:** Video, audio, animatsiyalar va interaktiv slaydlar yordamida ta`lim jarayonini boyitish. O`quvchilarning vizual va eshitish ko`nikmalarini rivojlantirish.

• **Elektron ta`lim resurslari:** E-kitoblar, onlayn darslar, ta`lim platformalari yordamida ta`limning mustahkamlanishi.

• **Simulyatorlar va o`yinlar:** Kompyuter o`yinlari va simulyatorlar orqali o`quvchilarni amaliy bilimlar bilan tanishtirish. Misol uchun, matematika, fizika yoki kimyo sohalarida simulyatsiyalarni qo`llash.

2. Interaktiv texnologiyalar:

• **Interaktiv doskalar:** O`qituvchi va o`quvchilar birgalikda ishlaydigan interaktiv vosita bo`lib, darslarni qiziqarli va samarali qiladi.

• **Onlayn platformalar:** Google Classroom, Moodle, Edmodo kabi platformalar yordamida o`quvchilar va o`qituvchilar o`zaro muloqotda bo`lib, masofaviy o`qitish imkoniyatlarini yaratadi.

• **Virtual sinflar:** Ta`lim jarayonini masofadan o`tkazish, o`quvchilarni bir vaqtning o`zida onlayn darslar bilan ta`minlash.

3. Loyiha asosidagi texnologiyalar:

• **Loyiha metodlari:** O`quvchilarga ma`lum bir loyiha ustida ishlash imkoniyati yaratib, o`z bilim va ko`nikmalarini amaliyotda qo`llashga yordam beradi.

• **Kollaborativ texnologiyalar:** O`quvchilarga guruh bo`lib ishlash va loyiha bajarish imkoniyatini taqdim etadi. Bunga Google Docs yoki Microsoft Teams kabi vositalar kiradi.

4. O`yin asosidagi texnologiyalar:

• **Didaktik o`yinlar:** O`quvchilarni o`yin orqali o`rgatish. Bu metod o`quvchilarda o`rganishga bo`lgan qiziqishni oshiradi.

• **Virtual o`yinlar:** O`quvchilarni virtual dunyoda o`rgatish, masalan, matematika yoki geografiya bo`yicha simulyatsiyalar.

5. Masofaviy o`qitish texnologiyalari:

• **Onlayn darslar:** O`quvchilarga internet orqali masofadan darslar o`tkazish imkoniyatini yaratadi.

• **Videokonferensiyalar:** O`quvchilar va o`qituvchilar o`rtasida masofaviy muloqotni o`rnatish. Zoom, Skype yoki Google Meet kabi dasturlar yordamida o`qitish.

Turli texnologiyalarni o`quv jarayoniga tatbiq qilish

Texnologiyalarni o`quv jarayoniga tatbiq qilishda o`qituvchi bir nechta faktorlarga e`tibor berishi lozim:

1. **O`quvchilarning ehtiyojlari:** Har bir o`quvchining ehtiyojiga mos texnologiyani tanlash zarur. Masalan, ba`zi o`quvchilar ko`proq vizual materiallarga ehtiyoj sezishi mumkin, boshqalari esa audio va interaktiv elementlarga qiziqishadi.

2. **Ta`lim maqsadlari:** O`qitish jarayonining maqsadlariga mos texnologiyalarni tanlash kerak. Agar maqsad bilim berish bo`lsa, multimedia va simulyatsiyalarni qo`llash samarali bo`ladi.

3. **Texnologiyaning qulayligi va mavjudligi:** O'qituvchi foydalaniladigan texnologiyaning o'quvchilar uchun qulayligini va mavjudligini inobatga olishi zarur. Masofaviy o'qitish uchun internet tarmog'i va zamonaviy qurilmalar mavjud bo'lishi lozim.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish o'qitishning sifatini oshirishga, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. **Keys-stadi metodi** kabi metodlar yordamida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Interaktiv texnologiyalar, kompyuter yordamida o'qitish, masofaviy ta'lim kabi zamonaviy usullar esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Texnologiyalarni o'quv jarayoniga to'g'ri tatbiq qilish o'qituvchining pedagogik mahoratiga va mavjud resurslarga bog'liqdir.

*Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.* Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turgun unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faolvyatidir: Tadqiqotchilar (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, Y.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar.

*Birinchi yondashuvda* hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

*Ikkinchi yondashuvda* alohida-alohida kiritilgan yangilikning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'mini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikro-tuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti; yangilikning meyorlari, yangining uni o'zlashtirish va

foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: Pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarining yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - maznun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;
  - subyektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
  - sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
  - mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi;
  - bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz - irradiasiya(alदानish) - zamonaviylashtirish;
  - boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
  - tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.
- Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarini qamrab olgan tizimdan iboratdir. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:
- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaoromlik qonuni;
  - nihoyat amalga oshish qonuni;
  - qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;

3. **Texnologiyaning qulayligi va mavjudligi:** O'qituvchi foydalaniladigan texnologiyaning o'quvchilar uchun qulayligini va mavjudligini inobatga olishi zarur. Masofaviy o'qitish uchun internet tarmog'i va zamonaviy qurilmalar mavjud bo'lishi lozim.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish o'qitishning sifatini oshirishga, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. **Keys-stadi metodi** kabi metodlar yordamida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Interaktiv texnologiyalar, kompyuter yordamida o'qitish, masofaviy ta'lim kabi zamonaviy usullar esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Texnologiyalarni o'quv jarayoniga to'g'ri tatbiq qilish o'qituvchining pedagogik mahoratiga va mavjud resurslarga bog'liqdir.

*Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.* Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turgun unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq oizgarishlarni tushunadi. Bu innovator faolvyatidir: Tadqiqotchilar (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, Y.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar.

*Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.*

*Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilikning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'ziga ikkinchisi egallashidir.* Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti; yangilikning meyorlari, yangining uni o'zlashtirish va

foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - maznun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;
  - subyektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
  - sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
  - mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi;
  - bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz - irradiasiya(alदानish) - zamonaviylashtirish;
  - boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
  - tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.
- Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarini qamrab olgan tizimdan iboratdir. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:
- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaoromlik qonuni;
  - nihoyat amalga oshirish qonuni;
  - qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;

- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;

Oliy ta'lim muassasalari innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;

- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;

- ko'p subyektli (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;

- individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

### **Muammoli o'qitish texnologiyasi**

Muammoli o'qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asming 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o'qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat. Bugungi kunda muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

### **Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi**

Tabaqalashtirilgan o'qitish o'quv jarayonini tashkil etishning bu shakli umumiy didaktika tamoyillariga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida o'quv jarayonini ixtisoslashtirishni ta'minlaydi. O'qitishni tabaqalash (bu tushuncha o'qitish jarayonining o'zi bilan bog'liq) - uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy- boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir. O'qitishning eng yuqori oliy pog'onasi individual o'qitish hisoblanadi.

### **Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi**

Talabning mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishini ta'minlash, zamonaviy o'quv jarayoniga qo'yiladigan jadallashgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o'qitish orqali erishish mumkin. Individual o'qitish - bu o'quv jarayonini tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog talabalar bilan yakkama-yakka shug'ullanadi, talaba o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi.

### **Kompyuterli o'qitish texnologiyasi**

Kompyuterlashtirilgan o'qitish texnologiyasi - bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o'qitishdir. O'qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televidenie, video va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitishning mutlaqo yangi, hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi.

### **Ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi**

Ta'lim jarayonidagi o'quvchining faolligi didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. O'quvchining faolligi maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O'quvchilarning faolligini ta'minlovchi o'qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi.

Pedagogik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo'yicha: *syujetli, ishbilarmonlik, imitatsion dramalashtirilgan o'yinlar.*

### **MODULLI OQITISH TEXNOLOGIYASI**

Modulli o'qitishning mohiyati

"Modulli o'qitish" termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog'liq bo'lib ("modul", lot. modulus), uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi. Modul - bu fanning muayyan

jarayoni yoki qonuni, bo'limi, muayyan katta mavzusini, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini taqdim etadi. Modul - bu fanning bir yoki bir necha tushunchalami o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o'quv materialidir.

### **Modulli o'qitishning tamoyillari**

O'qitishning modulli texnologiyasi, o'qitishning qabui qilingan tamoyillariga muvofiq ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Quyidagi tamoyillar modulli o'qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. *Faoliyatlik yondoshuvi tamoyili*: Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasida fan bo'yicha faoliyat yondashuvida, modullami o'quv rejasi vadasturlartahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida shakllantiriladi.

2. *Tenglik, teng huquqlik tamoyili*. Bu tamoyil, pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati subyekt-subvekt xarakterligini belgilavdi. Bu esa, modulli o'qitish texnologiyasining shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqliligini ko'rsatadi. Ya'ni, modulli o'qitish texnologiyasi shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo'ladi.

3. *Tizimli kvantlash tamoyili*. Bu tamoyil axborotni lo'nda qilib berish yondoshuvi, muhandislik bilimlar konsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

### **Keys-stadi texnologiyasi**

"Case" so'zi, lotincha "casus" - "voqea, hodisa" so'zidan kelib chiqqandir. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqea yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi. Umuman olganda keys-stadi (aniq bir holat yoki vaziyat) muayyan jarayonda sodir bo'ladigan haqiqiy voqelik so'zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bu ifoda ta'lim sohasida hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qo'llaniladi. Keys-stadi hodisa yoki vaziyatning oddiy tafsilotidan

farqli o'laroq, u o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'maklashuvchi axborotni o'z ichiga oladi.

Turli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish

Pedagogik innovatika (yangilik kiritish, innovatsiya) - ta'lim muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga samarali ta'sir etuvchi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir. Ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy texnik vositalari, axborot kommunikatsion tizimlardan foydalanish bilan bir qatorda, o'qitishning interaktiv uslublaridan foydalanish ham hozirgi davr talabiga aylanmoqda.

O'qitish jarayonida turli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bularga quyidagilar karadi.

**"Aqliy hujum" metodi** - o'qituvchi o'quvchi egallashi kerak bo'lgan mavzuni oddiydan - murakkabga tomon bosqichma bosqich loyihalab beradi.

**"Tarmoqlar" metodi** - o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

**"3x4" metodi** - o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

**"Blis-o'yin" metodi** - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

**"Intervyu" texnikasi** - o'quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javb berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

**"Iyerarxiya" texnikasi** - oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

**"Bumerang" texnikasi** - o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan

tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

**“Talaba” treningi** - o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

**“O'qituvchi shaxsi” treningi** - o'qituvchining innovasion faoliyatini ochib beruvchi “O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talabalar” mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

**“Muloqot” texnikasi** o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonidahamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

**“Boshqaruv” texnikasi** o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

#### **“Tarmoqlar” metodi (Klaster)**

Fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

#### **“Bumerang” texnologiyasi**

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.

#### **“Skarabey” texnologiyasi**

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy

bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

#### **“Aqliy hujum”**

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

#### **FSMU texnologiyasi**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv - seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

#### **FSMU texnologiyasi**

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

(M) - ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring.

(U) - fikringizni umumlashtiring.

Qarorlar shajarasi. Muammo qo'yiladi. Talabalar, o'quvchilar 3, 4, 5 guruhga bo'linadilar. Topshiriq topshiriladi, guruhlar qatorlari muhokama qilinib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Interaktiv o'qitish - talaba o'zida oldin mujassamlashgan tajribadan foydalangan holda, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, mashg'ulot davomida shaxsiy rol o'ynab, yangi tajribalar ortdiradi, olgan tajribalari asosida darsni tahlil qilib, o'ziga kerakli muhim materiallarni oladi hamda o'zining kundalik faoliyati bilan bog'laydi. Interaktiv so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "inter" - o'zaro (vzaimniy), "act" - faoliyat qilmoq (deystvovat) ma'nosini bildiradi. Shuning uchun "Interaktiv" so'zini "Interfaol" deb tarjima qilish birmuncha xato hisoblanadi. Interaktivlik, bu o'zaro munosabatda bo'lmoq, dialog rejimida o'qimoq ma'nosini bildiradi. Shu sababli interaktiv o'qitish-diaologli o'qitish demakdir.

#### Nazorat savollari

1. Pedagogik texnologiyaga ta'rif bering.
2. Pedagogik texnologiyalarning tasniflarini asoslab bering.
3. Muammoli o'qitishning mohiyati nimada?
4. Muammoli o'qitish metodikasining o'ziga xosligini yoritib bering.
5. Siz o'yinli texnologiyalarning qaysi turlarini bilasiz?
6. Pedagogik o'yinlar tasnifini aytib bering.
7. Mualliflik texnologiyalari namunalarini aytib bering va ularning mohiyatini so'zlab bering.
8. Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.
9. Rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyalarning qanday turlari, variantlari qo'llanilmoqda?
10. Integral pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
11. Masofaviy ta'lim texnologiyasining mohiyatini ayting.
12. Multimedia nima? Oliy ta'lim tizimida undan foydalanish imkoniyatlarini ayting.
13. Ta'lim jarayoniga faoliyatli yondashuv nimani anglatadi?
14. Interfaol so'zi va interfaol usul tushunchalari nimalarni bildiradi?
15. Kichik guruhlarda ishlash qanday tashkil etiladi, uning ahamiyati nimada?
16. Interfaol usullarning shakllari, turlarini ayting.

## TA'LIMNING ZAMONAVIY TASHKILY SHAKLLARI. TA'LIMNING ZAMONAVIY TASHKILY SHAKLLARIDAN FOYDALANILGANDA TA'LIMNING NATIJAVIYLIGI



#### Reja:

1. Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning tarixiy rivojlanishi tushunchasi
2. Ta'limning tashkiliy shakllari
3. Ta'limning an'anaviy bo'lmagan shakllari

**Tayanchni so'z va iboralar:** zamonaviy ta'lim shakllari, innovatsion ta'lim, interfaol darslar, ta'limning natijaviyligi, blended learning (aralash ta'lim), online va oflayn ta'lim, modul asosidagi ta'lim, kase-stadi (case study), flipped classroom (teskari sinf), gamifikatsiya (o'yinlashtirish).

**Ta'limning tashkiliy shakllari** - bu ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va olib borishning usul va tizimlaridir. Ular o'qitishning samaradorligini, o'quvchilarning faolligini va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda tashkiliy shakllar nafaqat o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi aloqani tashkil etadi, balki o'quvchilarning individual va jamoaviy faoliyatini rivojlantiradi.

#### Zamonaviy tashkiliy shakllar

1. **Individual ta'lim:**
  - o Bu shaklda o'quvchi o'zlashtirish jarayonida mustaqil ravishda ishlaydi. O'qituvchi faqat yo'naltiruvchi va yordamchi sifatida ishtirok etadi. Individual ta'lim o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlari hisobga olinadi.
  - o **Afzalliklari:** O'quvchi o'z sur'atida ishlaydi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
  - o **Kamchiliklari:** Boshqa o'quvchilar bilan o'zaro aloqaning kamligi.
2. **Guruhli ta'lim:**

o Bu shaklda o`quvchilar kichik guruhlariga bo`linib, ma`lum bir vazifalarni hal qilishadi. O`qituvchi guruhlarini boshqaradi va yo`naltiradi, ammo o`quvchilar bir-biriga yordam beradi.

o **Afzalliklari:** O`quvchilarda jamoada ishlash, fikr almashish, muammoni hal qilish ko`nikmalari rivojlanadi.

o **Kamchiliklari:** Ayrim o`quvchilar faol ishtirok etmasligi yoki o`zlarini guruhdan ajratib turishi mumkin.

### 3. **Klassik (front) ta`lim:**

o Bu shaklda o`qituvchi butun sinfga dars o`qiydi. O`quvchilar bir vaqtning o`zida ta`lim olishadi. O`qituvchi bir yo`nalishda barcha o`quvchilarni o`rgatishga harakat qiladi.

o **Afzalliklari:** O`qituvchi barcha o`quvchilarga bir xil ma`lumotni taqdim etishi mumkin.

o **Kamchiliklari:** O`quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinmaydi.

### 4. **Masofaviy ta`lim (online ta`lim):**

o Masofaviy ta`limda o`quvchilar darsni internet orqali olishadi, o`qituvchi va o`quvchilar onlayn platformalar (Google Classroom, Moodle, Zoom, Skype va h.k.) orqali o`zaro aloqada bo`ladi.

o **Afzalliklari:** O`quvchilarga darslarni va materiallarni qulay va istalgan vaqtda o`rganish imkoniyati beradi.

o **Kamchiliklari:** O`quvchilarni individual ravishda kuzatib borish va motivatsiya qilish qiyin bo`lishi mumkin.

### 5. **Modul ta`limi:**

o Bu shaklda ta`lim bir nechta modullarga bo`linadi va har bir modulda ma`lum bir ko`nikma yoki bilimlar to`plami o`rganiladi. O`quvchilar har bir modulni mustaqil ravishda yoki guruhda o`rganib, natijalarni baholashadi.

o **Afzalliklari:** O`quvchilarga aniq bir ko`nikma yoki bilimlarni o`rganishga yo`naltirilgan bo`lishi, ta`limda yuqori darajadagi shaxsiylashtirilgan yondashuv.

o **Kamchiliklari:** Agar modulni to`liq o`zlashtirmasangiz, keyingi modullarni tushunish qiyin bo`lishi mumkin.

### 6. **Gibrid ta`lim:**

o Gibrid ta`limda o`quvchilar an`anaviy (sinfdagi) va masofaviy (online) ta`limni birgalikda olib boradilar. Bu o`qitish shakli onlayn va oflayn usullarni uyg`unlashtirishni ta`minlaydi.

o **Afzalliklari:** Ta`limning moslashuvchanligi va ko`plab vositalardan foydalanish imkoniyatlari.

o **Kamchiliklari:** O`quvchilar va o`qituvchilarga ko`proq vaqti va resurslari talab qilinadi.

### 7. **Interaktiv ta`lim:**

o Bu shaklda o`quvchilar o`qituvchining yo`naltiruvchi faoliyati ostida muhokama, guruh ishlari, rol o`ynash va boshqa interaktiv usullar orqali o`rganadilar.

o **Afzalliklari:** O`quvchilar faolligi va ishtirokini oshirish, ko`proq ijodiy yondashuvlar.

o **Kamchiliklari:** Darslarni to`g`ri tashkil etish va barcha o`quvchilarni bir xil darajada jalb qilish qiyin bo`lishi mumkin.

Zamonaviy tashkiliy shakllar ta`lim jarayonining sifatini oshirishga va o`quvchilarning faolligini ta`minlashga xizmat qiladi. O`quvchilarning bilimlarini yanada samarali o`zlashtirishi, ta`limni shaxsiylashtirish va motivatsiyani oshirish ta`limning natijaviyligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, ta`lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan va yangi yondashuvlardan foydalanish, o`quvchilarning bilimlarini yanada boyitib, ularga amaliy ko`nikmalarni rivojlantirish imkonini yaratadi.

### **Ta`lim turlari va shakllari**

Didaktik g`oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g`oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o`ziga xos tizimlar ko`rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta`lim turlari o`quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi.

Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);

- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda Eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);

-avestit (Baqtiriya, Sug`diyona, Xorazmda – Eramizdan avvalgi VII-VI asrlar);

-yunon (Ellins, rim – yunon, rim – eramizdan avvalgi V-I asrlar);

-o`rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);

-yangi (tushuntirish, tushuntirish – ko`rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o`qitish, muammoli – dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog`idan foydalanib o`qitish va shu kabilar);

-xorijiy (tushuntirish, tushuntirish–ko`rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o`qitish, muammoli – dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNETning xalqaro tarmog`idan foydalanib o`qish va shu kabilar).

Muammoli o`qitishda muammoni ilgari surish dastlabki bosqich hisoblanadi.

Muammoni hal etishning keyingi bosqichida ta`lim oluvchilar berilayotgan savol bo`yicha mavjud muammoni aniqlaydilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar.

Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bo`lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan faoliyat bo`lib, u ta`lim oluvchida mustaqil fikr shakllanishi orqali aniqlanadi. Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, egallangan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonlari amalga oshiriladi.

*Ayni vaqtda ta`limning quyidagi shakllari ajratib ko`rsatiladi:*

1. Individual
2. Individual-guruhli
3. Sinf- dars
4. Leksion- seminar
5. Sinfdan tashqari
6. Auditoriyadan tashqari
7. Maktab
8. Maktabdan tashqari

Ta`limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta`limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta`limni tashkil etishga o`z ta`sirini o`tkazadi. Ayni vaqtda ta`limning quyidagi shakllari ajratilib ko`rsatiladi:

- ✦ individual;
- ✦ individual – guruhli;
- ✦ sinf – dars;
- ✦ ma`ruza – seminarli;
- ✦ sinfdan tashqari;
- ✦ auditoriyadan tashqari;
- ✦ maktab va maktabdan tashqari.

Ulardan ta`lim oluvchilarni qamrab olishi, ta`lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqiligi darajasi va o`qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko`ra quyidagi asosiy turi iste`molda foydalanib kelinmoqda:

- ✦ individual;
- ✦ individual – guruhli;
- ✦ sinf – dars;
- ✦ ma`ruza – seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo`lgan o`qitishning eng qadimgi shakli individual ta`lim hisoblanadi. Bu orqali hayotiy tajribalarni ajdodlardan – avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatdayoq yuzaga kelgan edi. Yozuv paydo bo`lishi bilan qavm boshlig`i turli belgilar yordamida o`zining tajribalarini keyingi avlodga uzatgan. Ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchilarning bevosita va individual aloqasiga hozirda misol sifatida repetitorlikni ko`rsatish mumkin. Ta`limni tashkil etishning individual shakli antik davr va o`rta asrlarda yagona usul bo`lgan, undan ba`zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanib kelingan. Individual ta`lim bir qator afzalliklarga ega. Shuning uchun bu usulni bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan.

Uning ustunligi o`quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to`la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishdan iborat. Individual ta`lim beruvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo`lishini talab etadi.

*Individual ta'limning kamchiliklari:*

- ✓ vaqtning tejamliligi;
- ✓ ta'lim beruvchi ta'sirining cheklanganligi;
- ✓ boshqa ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi
- ✓ jamoada ishlash tajribasini shakllanmasligi va shu kabilardan iboratdir.

XV – XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi va uning natijasida ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga keldi. Ulardan biri ta'lim oluvchilarni o'qitishning guruhli (jamoali) turi deb ataladi. Ular G'arbiy Rossiya (Hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) dagi birodarlik maktablarida ilk bor qo'llanilgan va undagi o'qish sinf – dars shaklining asosi bo'lgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommalashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarini kiritgan. Sinf-dars tizimi garchi 350-yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda iste'molda foydalanib kelinmoqda.

• O`quvchilarni real vaziyatlarda o`z bilimi va ko`nikmalaridan foydalanishga o`rgatadi.

• Ko`nikmalarni yaxshilash va o`quvchilarning ish faoliyatiga tayyorligini oshiradi.

• O`quvchilarni mustaqil ishga va jamoaviy faoliyatga jalb qiladi.

3. Laboratoriya Mashg`ulotlari

**Laboratoriya mashg`ulotlari** - bu ilmiy yoki texnik fanlar bo`yicha amaliy mashg`ulotlar bo`lib, unda o`quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda sinashadi. Laboratoriya mashg`ulotlari asosan tajribalar o`tkazish, ilmiy metodlarni qo`llash va o`z bilimlarini eksperiment orqali tekshirishga qaratilgan.

Laboratoriya mashg`ulotini o`tkazish texnologiyasi:

• **Maqsad:** O`quvchilarga ilmiy usullarni o`rgatish, tajriba o`tkazish va natijalarni tahlil qilish.

• **Rejalashtirish:** Laboratoriya mashg`ulotlariga tayyorlanish uchun o`quvchilar dastlab tajriba o`tkazishga tayyorlanadilar, kerakli materiallar va qurollar bilan tanishadilar.

• **Tashkil etish:** Tajriba o`tkazishning barcha bosqichlari aniq rejalashtiriladi. O`quvchilar uchun ko`rsatmalar va tavsiyalar beriladi, shuningdek, xavfsizlik choralariga e`tibor qaratiladi.

• **O`qituvchining roli:** O`qituvchi laboratoriya mashg`ulotini boshlashdan oldin barcha kerakli usullar va xavfsizlikni tushuntiradi. Mashg`ulot davomida o`quvchilarga nazorat va yordam beradi.

**Seminar, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari: farqlari va ahamiyatli jihatlari**

Kriteriyalar	Seminar	Amaliy Mashg`ulotlar	Laboratoriya Mashg`ulotlari
<b>Maqsad</b>	Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, muhokama qilish, fikr bildirish.	Ko`nikmalarni amaliyotda qo`llash, real vaziyatlarda o`zlashtirish.	Ilmiy tajribalar o`tkazish, eksperimentlar va nazariy bilimlarni amaliyotda sinash.
<b>Tashkil etish</b>	Guruh muhokamasi, fikr almashish.	Vazifa bajarish, guruh ishlari.	Tajriba o`tkazish, ilmiy usullardan foydalanish.
<b>O`qituvchining roli</b>	Yo`naltirish, muhokama va tahlil qilishni boshqarish.	Yordam berish, ko`rsatmalar berish.	Nazorat qilish, xavfsizlikni ta`minlash.
<b>Metodlar</b>	Muhokama, savol-javob, tahlil.	Ko`rsatmalar, guruh ishlari, amaliyot.	Tajriba, eksperiment, ilmiy tahlil.
<b>Ahamiyati</b>	Fikr almashish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.	Nazariy bilimlarni qo`llash, amaliy	Ilmiy metodlarni o`rgatish, real

Kriteriyalar	Seminar	Amaliy Mashg`ulotlar	Laboratoriya Mashg`ulotlari
		ko`nikmalarni rivojlantirish.	hayotdagi bilimlarni sinash.

**•Metodlar:**

- **Eksperiment va tajriba:** O`quvchilar laboratoriya sharoitida tajriba o`tkazadilar va natijalarni tahlil qilishadi.
- **Vazifani yechish:** O`quvchilarga maxsus vazifalar beriladi va ular tajriba davomida muammoni hal qilishadi.
- **Natijalarni taqdim etish:** O`quvchilar tajriba natijalarini qayd etadilar va ilmiy tahlilni o`tkazadilar.

Laboratoriya mashg`ulotlarining ahamiyatli jihatlari:

- O`quvchilarga ilmiy metodlarni o`rgatish va nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash imkoniyatini beradi.
- O`quvchilarning analitik va tahliliy ko`nikmalarini rivojlantiradi.
- Ilmiy tajriba o`tkazish orqali o`quvchilar o`z bilimlarini mustahkamlashadi va bilimlarni real holatlarda sinashadi.
- Eksperiment o`tkazish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy izlanishlarga asoslangan yondashuvni o`rgatadi.

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlari ta`lim jarayonida har biri o`zining muhim rolini o`ynaydi va turli maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi.

**Seminar** interaktiv bo`lib, o`quvchilarning tanqidiy fikrlashini va bilimlarni chuqurlashtirishni ta`minlaydi.

**Amaliy mashg`ulotlar** nazariy bilimlarni real holatlarda qo`llashni o`rgatadi.

**Laboratoriya mashg`ulotlari** esa ilmiy metodlar va tajribalarni o`rganish orqali o`quvchilarning tahliliy va analitik ko`nikmalarini rivojlantiradi.

**Seminar mashg`ulotlarini o`tkazish texnologiyasi**

Ta`limni tashkil etishning darsdan boshqa shakllari ham mavjudki, bular dars oldida turgan muhim vazifalarni samarali va har tomonlama hal etishga yaqindan yordam beradi. O`qitishni yo`lga qo`yishning ta`lim muassasalarida qo`llanilib kelinayotgan bir qator shakllari mavjud:

Bulardan: *praktikum va seminar mashg`ulotlari, fakultativ mashg`ulotlar; o`quv ekskursiyalari; qo`shimcha dars; maslahat; suhbat; uy ishlari; ma`ruza; imtihon, sinov, test, reyting tizimi* va boshqalarni keltirish mumkin.

Praktikumlar o`quvchilarning olgan bilimlarini o`quv kabinetlari, laboratoriya va ustaxonalarda, ishlab chiqarish korxonalarida, tajriba-yer uchastkalarida amalda qo`llashga o`rgatish, amaliy ko`nikma va malaka hosil qilish kasbiy yo`nalish ishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Praktikumni o`tkazish uchun usta, o`qituvchi, mutaxassis rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish oldidan ko`rsatmalar beradi, faoliyatga tayyorlaydi, ishlarning moddiy-texnik ta`minotiga e`tibor beradi. Ish qurollarining yetarlilik darajasiga ko`ra, ommaviy yoki 2-3 kishidan iborat guruh bilan ishni tashkil etadi. O`qituvchi tomonidan bu sohada bolalar faoliyatiga maqsadli rahbarlik qilinishi va yo`naltirib turilishi esa ularni mustaqil ishlashga o`rgatib boradi.

Seminar mashg`ulotlari odatda, gumanitar, ijtimoiy fanlarda ma`lum bo`lim yoki katta boblarni o`rganib bo`lingach, olib boriladi. Ushbu mashg`ulot turi o`quvchilarni nazariy materiallarni sistemalashtirish, umumlashtirish, shuningdek, talaba, o`quvchilarni u yoki bu tarzda ma`lumotlar bilan chiqish, munozara yuritish, o`z fikrini mustaqil himoya qilish, o`z fikr-mulohazalari bilan o`rtoqlashish kabi ko`nikma va odatlarga o`rgatishda muhimdir.

Seminar mashg`ulotlari rejalari haqida talaba, o`quvchilar bilan oldindan fikrlashib olinadi. Tayyorgarlik jarayonlari haqida maslahatlar beriladi. Zarur adabiyotlar, manbalar tavsiya etiladi. O`quvchilar muammoli xarakterdagi referat, axborotlar va ma`ruzalar bilan chiqishlar qiladilar. O`qituvchi bunday ishlarni tayyorlashga rahbarlik qiladi va yo`nalish berib boradi.

Odatda seminar mashg`ulotlari o`qituvchining qisqacha kirish so`zidan so`ng boshlanadi. Asosiy vazifalar mavzu yo`nalishida hal etilishi kerakligi aytiladi. O`quvchilar chiqishlari ma`lum savollar va unga berilgan javoblar hamda ma`lum qo`shimcha tarzdagi fikrlar bilan to`ldiriladi.

Mashg`ulot oxirida o`qituvchi umumlashtiruvchi, bugungi chiqishlarga baho beruvchi fikrlarni bildiradi.

### Oliy ta`limda amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish

Amaliy mashg`ulot – bu ta`lim beruvchini ta`lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo`naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta`minlovchi, mashg`ulotni o`qitish shaklidir.

Amaliy mashg`ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma`ruza darsi mavjud bo`lgan va ma`ruza darsi mavjud bo`lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o`tkaziladigan amaliy mashg`ulotlar. Amaliy mashg`ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat`iy amal qilingan holda o`tkaziladi. Amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish bo`yicha zarur adabiyotlar ro`yxati beriladi. Ma`ruza darsi mavjud bo`lgan amaliy mashg`ulotlarda asosan ma`ruza darslarida o`tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

*Amaliy mashg`ulot quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo`llaniladi:*

- ✦ nazariy materialni tartibga solish.
- ✦ ko`nikmalarni hosil qilish.
- ✦ bilimlarni nazorat qilish.

*Ta`lim beruvchi amaliy mashg`ulotni samarali o`tkazish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:*

- ✦ o`zining tayyorgarligi, bunda savol va javob texnikasiga ega bo`lishi;
- ✦ o`quv guruhining holati: uning motivatsiyasi, uning tashkil etish xususiyati;
- ✦ o`quv jarayonining texnik jihozlanishi.

Amaliy mashg`ulot darslarida yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo`ladi. O`qituvchi darsga kirib, tashkiliy ishlarni o`tkazadi. Xonaning darsga tayyorgarligi, doskaga yozish va o`chirish vositalarining mavjudligi hamda talabalar davomati aniqlanadi.

Darsda o`tiladigan mavzu e`lon qilinib, doskaga yozib qo`yiladi. O`tgan mavzuning asosiy mazmuni qisqacha bayon qilinib, yangi mavzu rejasi beriladi.

Ma`ruza darslari mavjud bo`lgan fanlardan amaliy mashg`ulot darslari albatta ma`ruza o`tilgandan keyin o`tkaziladi. Ma`ruzada o`tilgan materiallarning asosiy xulosalari tushuntiriladi, ma`ruza bilan amaliy mashg`ulot bog`lanadi.

Amaliy mashg`ulot darslarida savol javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag`batlantirilib ball qo`yiladi. Amaliy mashg`ulot darslarining qat`iy dastur bo`yicha sifatli o`tilishini, talabalar bilimining o`z vaqtida baholanishini fandan ma`ruza olib boruvchi o`qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o`qituvchisi bilan dastur bajarilishi, amaliyot darslarida nimalarga alohida e`tibor qaratilishi, ma`ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko`proq yoritilganini va boshqa o`quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib, fikrlashib turishi lozim.

Ma`ruza darslari rejalashtirilmagan, faqat amaliy dars o`tkaziladigan fanlardan amaliy mashg`ulotlar o`tkazishda nazariy bilimlar bilan amaliy mashqlar bajarish birgalikda olib boriladi. Dastlab mavzu bo`yicha nazariy bilimlar beriladi, o`qituvchi misol va mashqlar bajarib ko`rsatadi. Shundan so`ng talabalar mustaqil mashqlar bajaradi. O`qituvchi talabalar bilimni baholab boradi. Amaliy darsni o`qituvchi xulosalab yakunlaydi.

#### Nazorat savollari

1. Seminar mashg`ulotlari qanday tashkil etiladi? Fikringizni bayon eting.
2. Seminar mashg`ulotlariga qo`yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Amaliy mashg`ulotlari qanday tashkil etiladi? Fikringizni bayon eting.
4. Amaliy mashg`ulotlariga qo`yiladigan talablar nimalardan iborat?
5. Laboratoriya mashg`ulotlari qanday tashkil etiladi? Fikringizni bayon eting.
6. Laboratoriya mashg`ulotlariga qo`yiladigan talablar nimalardan iborat?
7. Seminar mashg`ulotlarini o`tkazish texnologiyasi nimalardan iborat?
8. Laboratoriya mashg`ulotlarini o`tkazish texnologiyasi nimalardan iborat?

## AMALIY VA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI



### Reja:

1. Amaliy mashg'ulotlarda ta'lim berish texnologiyasini loyihalash
  2. Muammoli amaliy mashg'ulotda ta'lim berish texnologiyasi modeli va texnologik xarita
  3. Laboratoriya mashg'ulotlarida ta'lim berish texnologiyasini loyihalash
- Tayanch so'z va iboralar:** amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'ulot, tashkil etish texnologiyasi, mashg'ulot rejasi, bog'liqlik, ko'nikma va malaka, rivojlantirish, eksperiment jarayoni, yondashuv, didaktik vositalar.

### Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ta'lim jarayonining muhim qismlarini tashkil etadi, chunki ular o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va ilmiy tadqiqot metodlarini o'rganishga yordam beradi. Ushbu mashg'ulotlar, odatda, o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish, muammolarni hal qilish, amaliy tajriba va ilmiy izlanishlarni o'rganish uchun o'tkaziladi. Ularning samarali tashkil etilishi uchun aniq bir texnologiyani qo'llash zarur.

#### 1. Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi

Amaliy mashg'ulotlar nazariy bilimlarni real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etish orqali o'quvchilarga amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga qaratilgan. Bunday mashg'ulotlar ko'pincha guruh ishlari, vazifa bajarish, texnik ko'nikmalarni o'rganish va boshqa amaliy faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

#### Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bosqichlari:

1. Mashg'ulotning maqsadini belgilash:

o Amaliy mashg'ulotlarning maqsadi - o'quvchilarga konkret ko'nikmalarni shakllantirish va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini berish. Masalan, laboratoriya ishlari yoki texnik ko'nikmalarni o'rganish.

o O'qituvchi mashg'ulotning maqsadi va vazifasini aniq tushuntirishi kerak.

#### 2. Mashg'ulot uchun materiallar va vositalarni tayyorlash:

o Amaliy mashg'ulotlar uchun kerakli vositalar, materiallar, asbob-uskunalar va resurslar oldindan tayyorlanishi zarur.

o O'quvchilar uchun kerakli qo'llanmalar, instruktsiyalar va vazifalar tayyorlanadi.

#### 3. Mashg'ulotni tashkil etish:

o **Guruh bo'lib ishlash:** Amaliy mashg'ulotlar ko'pincha guruhlar bo'lib o'tkaziladi. Har bir guruhga aniq vazifalar beriladi va ular o'zaro hamkorlikda ishlashadi.

o **Indivuduel ishlash:** Ba'zi mashg'ulotlar individual ishlashni talab qiladi, masalan, o'quvchilarga aniq bir vazifani mustaqil bajarish topshiriladi.

#### 4. O'qituvchining roli:

o O'qituvchi amaliy mashg'ulotni boshlashdan oldin, o'quvchilarga qisqacha tushuntirishlar beradi va aniq ko'rsatmalar beradi.

o Mashg'ulot davomida o'qituvchi o'quvchilarga yordam beradi, savollar beradi, faoliyatni nazorat qiladi va to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

#### 5. Mashg'ulotni nazorat qilish va baholash:

o Amaliy mashg'ulotda o'quvchilarning ishlash jarayoni va natijalari nazorat qilinadi. O'qituvchi o'quvchilarning ishlarini ko'rib chiqadi, ularning natijalarini baholaydi va kerak bo'lsa, tuzatishlar kiritadi.

o **Baholash mezonlari:** O'quvchilarning ishlari o'z vaqtida bajarilishi, vazifalarni to'g'ri va samarali bajarilishi, ish jarayonida qatnashganligi kabi mezonlar asosida baholanadi.

#### Amaliy mashg'ulotlarga qo'yiladigan talablar:

o **Anik va tushunarli vazifalar:** O'quvchilarga berilgan vazifalar aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

• **Resurslar va vositalarning yetarliligi:** Mashg'ulotlar uchun barcha kerakli materiallar va asboblari tayyor bo'lishi zarur.

• **O'quvchilarning faolligi:** Amaliy mashg'ulotda o'quvchilar faollik ko'rsatishi, o'z fikrlarini ifodalashi va jamoaviy ishlarni samarali tashkil etishi kerak.

## 2. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi

Laboratoriya mashg'ulotlari asosan tabiiy fanlar, ilmiy tadqiqotlar yoki texnikaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda sinash, ilmiy metodlarni o'rganish va ilmiy tahlilni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

### Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bosqichlari:

#### 1. Laboratoriya ishlari uchun maqsadni belgilash:

• Laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadi - ilmiy metodlarni qo'llash, o'quvchilarga eksperimentlarni amalga oshirish va natijalarni tahlil qilishni o'rgatish.

• O'quvchilar uchun aniq vazifalar va maqsadlar qo'yiladi (masalan, kimyoviy reaksiyalarni kuzatish, biologik jarayonlarni o'rganish, fizika tajribalarini o'tkazish).

#### 2. Laboratoriya sharoitlarini tayyorlash:

• Laboratoriya mashg'ulotlari uchun barcha zarur jihozlar, materiallar va asbob-uskunalar tayyorlanadi.

• Xavfsizlik choralari alohida e'tibor qaratiladi, chunki laboratoriya muhitida xavfli vositalar yoki kimyoviy moddalar ishlatilishi mumkin.

#### 3. Mashg'ulotni o'tkazish:

• **Tajribani o'tkazish:** O'quvchilar o'zlari tajriba o'tkazadilar va tajribadan olingan natijalarni yozib boradilar. Har bir eksperiment o'zining ilmiy maqsadlariga erishish uchun aniq bosqichlarga bo'linadi.

• **Nazariy tushuntirishlar:** O'qituvchi tajribaning ilmiy asoslarini tushuntirib, eksperimentni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi.

• **Ko'rsatmalar:** Laboratoriya mashg'ulotida o'qituvchi o'quvchilarga qanday qilib aniq va xavfsiz ishlashni, natijalarni qanday tahlil qilishni ko'rsatadi.

#### 4. O'qituvchining roli:

• O'qituvchi o'quvchilarga eksperimentlar va tajribalarni qanday o'tkazishni tushuntiradi, xavfsizlikka alohida e'tibor beradi, yordam beradi va o'quvchilarning natijalarini tahlil qilishda ko'maklashadi.

• O'qituvchi ilmiy usulni o'rgatadi va o'quvchilarni tajribadan olingan ma'lumotlarni qanday tahlil qilishga yo'naltiradi.

#### 5. Natijalarni tahlil qilish va baholash:

• O'quvchilar eksperimentlardan olingan natijalarni yozadilar va tahlil qilishadi.

• Natijalar asosida ilmiy xulosa chiqariladi. O'qituvchi o'quvchilarning ishini baholaydi va kerakli tuzatishlarni taklif qiladi.

### Laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar:

• **Xavfsizlik choralari:** Laboratoriya ishlari uchun xavfsizlik ko'rsatmalari qat'iy rioya qilinishi kerak.

• **Ilmiy yondashuv:** Tajriba natijalari ilmiy tahlil qilinishi, xatoliklar tekshirilishi va ilmiy xulosalar chiqarilishi zarur.

• **O'quvchilarning faolligi:** O'quvchilar o'z tajribalarini o'zlari bajarishi, natijalarni kuzatishi va ilmiy tahlil qilishni amalga oshirishi kerak.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqot usullarini o'rganish imkoniyatlarini beradi. Ularni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun aniq rejalashtirish, kerakli materiallarni tayyorlash, o'quvchilarga ko'rsatmalar berish va jarayonni samarali baholash zarur.

### Amaliy mashg'ulotlarda ta'lim berish texnologiyasini loyihalash

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning asosiy yo'li ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlangan ma'ruza va ma'lumotlarni jamoaviy muhokama qilishni tashkillashtirishdan iborat bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlar samaradorligi ta'lim oluvchilarni amaliy mashg'ulotga tayyorlanish sifati bilan aniqlanadi. Ma'ruza va yangiliklar bilan chiquvchi, ta'lim oluvchilarning tayyorgarligi ahamiyatga ega bo'ladi. Xar bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi.

O`quv maqsadlari muayyan ta`lim jarayoni yakunida ta`lim oluvchi tomonidan o`zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo`lgan bilim, hatti-harakat bilan bog`liq bo`lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi. Har bir fanning o`quv maqsadlari to`g`ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Umumiy o`quv maqsadlarining mazmuni yo`naltiruvchi maqsadlardan kelib chiqib belgilanadi. O`qituvchi tomonidan amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqiladi. Har bir mashg`ulot bo`yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o`quv jarayonini to`laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Muammoli amaliy mashg`ulotda ta`lim berish texnologiyasi modeli va texnologik xarita

Muammoli amaliy mashg`ulotda ta`lim berish texnologiyasi modeli

Vaqt: 2 soat

Talabalar soni: ... ta

O`quv mashg`ulot shakli

Muammoli seminar

O`quv mashg`ulot rejasi

1. ...

2. ...

3. ...

O`quv mashg`ulot maqsadi: ... bo`yicha bilimlarni mustahkamlash, to`g`risida muammoli vazifalarni yechish malakalarini rivojlantirish.

Pedagogik vazifalar:

- ..... to`g`risida ma`lumotlarini tizimlashtirishni o`rgatish;
- ..... buyicha muammoli vazifalarni yechishni, tahlil qilishni o`rgatish,
- .... imkoniyatlarni ilgari surish, ularni baholash, yakuniy xulosalar qilishni o`rgatish.

O`quv faoliyat natijalari:

- ... ma`lumotlarni tizimga soladilar;
- ... bo`yicha muammoli vazifalarni yechadilar, tahlil qiladilar;
- ... imkoniyatlarni ilgari suradilar, ularni baholaydilar, yakuniy xulosalar qiladilar.

Ta`lim usullari

Muammoli usul, suhbat, munozara, aqliy hujum  
Ta`lim shakllari tashkillashtirish shakli  
Ommaviy, jamoaviy, guruhli.  
Ta`lim vositalari  
Ma`ruza matni, A32 o`lchamdagi qog`ozlar, markerlar, skoch, o`quv materiallar.

Ta`lim berish sharoiti

Guruhlarda ishlashga mo`ljallangan xona.

Monitoring va baholash

Og`zaki nazorat: tezkor-so`rov

Muammoli amaliy mashg`ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti

Faoliyat

Ta`lim beruvchi

Ta`lim oluvchi

1 - bosqich.

O`quv mashg`ulotiga kirish (15 daq.)

Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg`ulot muammoli shaklda borishini ma`lum qiladi.

1.2. Talabalar bilimni suhbat shaklida faollashtiradi (№ ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o`quv muammosini yechish bo`yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlarini yetarliligini aniqlaydi

Tinglaydilar yozib oladilar

2 - bosqich. Asosiy (55 daq.)

2.1. Talabalarga muammoli topshiriqlarni o`qib beradi (№ ilova).

2.2. Muammoni yechish yo`llarini izlashni tashkillashtirishga o`tdi: birinchi kichik muammoni ifodalaydi, so`ngra muammoli savollarni berib va ular javoblarini muhokama qilib, talabalarni uni yechish yo`lini izlashga, ya`ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. Shu tarzda keyingi muammolarni yechish yo`llarini izlashni tashkillashtiradi.

2.3. Talabalarni kichik guruhlarga bo`ladi, muammoli topshiriqni yechish vazifasini beradi. O`quv materiallari, baholash ko`rsatkichlari va mezonlarini tarqatadi (№ ilova). Taqdimot uchun qog`ozlarni, markerlarni

tarqatadi, aqliy hujum qoidasini eslatadi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi.

2.4. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlar chiqishlarini boshqaradi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'g'ri yechimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi, talabalar bilan birgalikda javoblar to'liqligini baholaydi, savollarga javob beradi.

2.5. Taqdimotni yakunlaydi, muammoni yechishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni ko'rsatadi

Savollarga javob beradilar. Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar.

Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar.

Xulosa chiqaradilar.

Guruh, vakillari taqdimot qiladilar, yakuniy xulosani beradilar.

Tinglaydilar

3 bosqich, yakuniy (10 daq)

3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi.

3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

#### Nazorat savollari

1. Seminar mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
2. Amaliy mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Seminar mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi nimalardan iborat?
5. Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi nimalardan iborat?
6. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi nimalardan iborat?
7. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy farqlari nimada?

## METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANIDA TALABALAR BILIMINI TEKSHIRISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI. TALABALAR BILIMLARINING REYTINGI



#### Reja:

1. Oliy o'quv yurti talabalarining bilish faoliyati
2. Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanida talabalar bilimini tekshirish va baholashning reyting tizimi.
3. Talabalar bilimlarining reytingi

**Tayanch so'z va iboralar:** reyting tizimi, mezonlari, natijalarni baholash, formativ baholash, summativ baholash, kompetensiyaga asoslangan baholash, ko'nikma va malakalarni baholash, nazorat shakllari, portfolio baholash, darslikka mos baholash, baholashning obyektivligi, baholashning shaffofligi, elektron baholash tizimlari, o'z-o'zini baholash, jamoaviy baholash, refleksiv baholash, reyting tizimi.

#### Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasida talabalar bilimini tekshirish va baholashning reyting tizimi

Ta'lim jarayonida talabalar bilimini tekshirish va baholashning reyting tizimi - o'qitish jarayonining samaradorligini baholash va talabalarning o'qishdagi yutuqlarini adolatli va obyektiv tarzda o'lchash uchun ishlatiladi. Reyting tizimi ta'limda talabalarni motivatsiya qilish, ularning faoliyatini rag'batlantirish va individual yondashuvni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Metodika fanlari o'qitishda reyting tizimi nafaqat talabalar bilimlarini baholash, balki ularning o'quv jarayonidagi faolligini ham kuzatishga imkon beradi.

#### Reyting tizimi asoslari

Reyting tizimi - bu talabaning o'qish jarayonida erishgan yutuqlarini o'lchash va baholash uchun ishlatiladigan metodika. U, odatda, ma'lum bir vaqt davomida (semestir, kurs va hokazo) talabalar faoliyatining umumiy bahosini hisoblash uchun bir nechta komponentlardan iborat bo'ladi. Har bir

komponent o'zining ma'lum vaznini (koeffitsiyentini) ifodalaydi va talabalar bu koeffitsiyentlar asosida reytingda o'z o'rinlarini egallaydi.

### Reyting tizimining asosiy komponentlari:

#### 1. O'quv jarayonida faollik:

- o Talabaning darslarda qatnashishi, savollarga javob berishi, guruh ishlari va seminarlarda faol ishtirok etishi.

- o Darsga tayyorlik (kurs ishi, o'zlashtirish darajasi).

#### 2. Nazariy bilimni baholash:

- o O'quvchilarning nazariy bilimlarini testlar, yozma imtihonlar, ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar orqali baholash.

#### 3. Amaliy ko'nikmalar:

- o Laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy ishlash, tajribalar, va ishchi dasturlarni ishlab chiqish.

#### 4. Mustaqil ish va izlanishlar:

- o Talabaning mustaqil ishga bo'lgan yondashuvi, ilmiy tadqiqotlar va referatlar.

- o Darsdan tashqari o'quv faoliyati (seminarlar, forumlar, konferensiyalar).

#### 5. Boshqa ko'rsatkichlar:

- o Fikr bildirish va tanqidiy yondashuv, o'quv jarayonida muammoni hal qilish, kreativlik, muhokama qilish qobiliyati va boshqalar.

### Reyting tizimi belgilanishi

Reyting tizimida talabalar faoliyatining har bir qismi ma'lum ballar bilan baholanadi. Reytingni hisoblashda ko'plab usullar mavjud, ammo umumiy yondashuvda quyidagi prinsiplar qo'llaniladi:

#### 1. Ballarni belgilash:

- o O'quv jarayonining har bir komponenti (test, imtihon, amaliy ish, seminar) alohida ballar bilan baholanadi. Har bir komponentga maxsus vazn koeffitsiyenti beriladi (masalan, 0.3, 0.2 va boshqalar).

#### • Masalan:

- o Test va imtihonlar - 40%
- o Amaliy mashg'ulotlar - 30%
- o Mustaqil ishlar (referatlar, kurs ishlari) - 20%
- o Darsga qatnashish, faollik - 10%

### 2. Ballarni yig'ish:

- o Talabaning jami reytingi har bir komponentdan olingan ballar summasidan tashkil topadi. Misol uchun:

- o Test: 30/40

- o Amaliy ishlar: 25/30

- o Mustaqil ishlar: 15/20

- o Darsga qatnashish: 8/10

Jami reyting:

- o  $30/40 * 0.4 = 12$

- o  $25/30 * 0.3 = 7.5$

- o  $15/20 * 0.2 = 3$

- o  $8/10 * 0.1 = 0.8$

**Jami reyting = 12 + 7.5 + 3 + 0.8 = 23.3 ball.**

### 3. Reyting diapazonlari:

- o Talabalar reytingi ma'lum diapazonlarga bo'linadi va har bir diapazonga mos ravishda baholash natijalari chiqariladi.

- o **A** - 90-100 ball (Mukammal bilim va ko'nikmalar)

- o **B** - 75-89 ball (Yaxshi bilimlar)

- o **C** - 60-74 ball (O'rta darajadagi bilimlar)

- o **D** - 50-59 ball (Qoniqarli bilimlar)

- o **F** - 0-49 ball (Kutilgan natijaga yetmagan)

### Reyting tizimining afzalliklari

#### 1. O'quvchilarga ko'p imkoniyatlar yaratadi:

- o Talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini yaxshilashga ko'proq vaqt ajratishi mumkin, chunki reyting tizimi davomida o'z bilimlarini bir nechta yo'nalishda (nazariy, amaliy, mustaqil ishlar) namoyon qilish imkoniyatini beradi.

#### 2. Faollikni oshiradi:

- o O'quvchilarni darsga tayyorlanishga, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Ularning bilimini va faolligini doimiy ravishda nazorat qilish mumkin.

#### 3. Adolatli baholash imkonini beradi:

o Har bir talabaga individual yondashuvni ta'minlashga yordam beradi, chunki har bir talabadan turli ko'nikmalar va faoliyatlar o'zgacha baholanadi.

#### 4. **Motivatsiyani oshiradi:**

o Reyting tizimi talabalarni o'z bilimni doimiy ravishda oshirishga undaydi, chunki har bir kichik yutuq reytingda hisobga olinadi va natijada yuqori baholarga erishish imkoniyatini yaratadi.

#### **Reyting tizimi va uning o'qitishdagi ahamiyati**

Reyting tizimi talabalar bilimni aniq va adolatli baholash imkonini beradi. Bu tizim, shuningdek, o'qituvchilarga o'quvchilarning o'rganish jarayonini yaxshilash uchun zarur bo'lgan tuzatishlar va yo'nalishlarni berishda yordam beradi. Reyting tizimi yordamida o'quvchilarga o'z maqsadlariga erishish yo'lida yordam beriladi, va ularning o'quv faoliyatining natijalari bir necha o'lchovlar asosida aniqlanadi.

Bundan tashqari, reyting tizimi nafaqat talabalar bilimni baholashni, balki ularning faolligini, mustaqil ishlash ko'nikmalarini va akademik yutuqlarini ham kuzatib boradi. Shunday qilib, reyting tizimi talabalar uchun ta'limning samaradorligini oshiradi va o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Reyting tizimi metodika fanlarini o'qitish texnologiyasida o'quvchilarning ilmiy, amaliy va mustaqil ishlash ko'nikmalarini baholashda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat talabalar bilimni o'lchash, balki ularning o'quv faoliyatidagi faolligini rag'batlantirish, adolatli va obyektiv baholash tizimini yaratish uchun zarur. Reyting tizimi yordamida talabalarining o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlari aniq ko'rsatiladi, va bu o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining bilish faoliyati**

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayonini faqat muayyan fanlar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma olish bilan chegaralab bo'lmaydi. Shu tufayli hozirgi sharoitda o'quv jarayonini sifat jihatdan jiddiy qayta qurish lozim bo'ladi. Shu munosabat bilan Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining bilish faoliyatini jonlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bilish faoliyati masalalari taniqli psixolog va pedagog P.P.Blonskiyning ijodida yoritib berilgan. P.P.Blonskiy ilk bor

pedagogik psixologiyada mantiqiy hukm turlarining shakllanishi (muammoli, oldindan ko'ra bilish) va xulosa chiqarish planida ta'lim oluvchining fikrlashini tahlil qilib berdi. U bilish faoliyatini psixologik hodisalar - xotira, iroda, idrok bilan dialektik aloqadorlikda deb qaraydi va xotira nazariyasini shakllantirar ekan, xotiraning fikrlash va nutq bilan ichki aloqasini ochib beradi. P. Blonskiyning o'rganishga qiziqtirish asosida faollik va mustaqillikka undash, mustaqil faoliyat yuritish, ta'lim oluvchilarning bilish qobiliyatlarini o'stirishni tashkil etish to'g'risidagi g'oyalari samarali hisoblanadi. Bilish faolligi muammosi bo'yicha L.P.Aristova, M.A.Danilov, B.P.Yesipov, I.Ya.Lamer, R.S.Noga, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov, I.T.Ogorodnikov kabi pedagog va psixolog olimlar tadqiqot ishi olib borganlar.

Didaktika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlilidan "bilish" va "o'qitish" degan tushunchalarni farqlash lozimligi ko'rinadi. "Bilish faoliyati" tushunchasi "o'quv faoliyati" tushunchasidan ancha keng. Bilish faoliyatining mazmuniy tomoni o'quv dasturlariga asoslangan formal o'qitish doirasidan chiqadi. Bilish faoliyati inson qurollanishi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar, shuningdek, unga zarur bo'lgan ijtimoiy faollik va mohiyatnigina emas, balki bilimlarni mukammallashtirish, takomillashtirish ehtiyojlariga bog'liq ravishda uni tanlay olish hamda tashkil eta olish va uni hayotga tatbiq etishni shakllantirishdir. Pedagogika nazariyasi bilish faoliyatini jonlantirish masalasiga xilma-xil omillar majmui nuqtai nazaridan qaraydi: ijtimoiy omillar (obyektiv va subyektiv shakllarda) va subyektda muayyan ma'naviy ehtiyojning mavjudligi omili.

Talabalarining bilish faoliyatini jonlantirish uchun ularda quyidagilarni shakllantirish zarur:

- ❖ bilishga tayyorlik;
- ❖ bilish faoliyatining malaka va ko'nikmalari;
- ❖ bilish faoliyatiga ehtiyoj.

Talabalarda bilish faoliyatiga bo'lgan barqaror ehtiyojni shakllantirish jarayoni bu faoliyatning psixologik dalillanishiga asoslanadi. S.A.Rubinshteyn ta'kidlaydiki, "Fe'l-atvordagi barqarorlikka ega bo'lgan har bir intilish, bu bo'lg'usi xarakterning qirralaridan biridir. Xarakter esa

birin-ketin inson xatti-harakatlarida namoyon bo`lib, unga singishib, shaxsiy hislatga aylanadigan intilishlar majmuidir”.

Bilish faoliyatining faol qo`zg`atuvchilari quyidagilardir:

- konkret faoliyatga bevosita, faol qizitqish;
- axloqiy - estetik va ruhiy qoniqish (motivlari).

A.K.Gromsevaning tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, bilish faoliyatini motivatsiyalash o`smirlik yoshida ongli xarakterga ega bo`ladi. Yu.V.Sharov bilish ehtiyojlari rivojlanishining bir necha bosqichlarini ishlab chiqqan:

✚ elementar ilmiy-tadqiqot faoliyati yo`nalishi bosqichi va tashqi taassurotlarga ehtiyojni shakllantirish;

✚ o`rab olgan olamni bilishga bo`gan ehtiyojni shakllantirish bosqichi;

✚ bilish usulini egallash faoliyati sifatida mashq qilish ehtiyojini shakllantirish bosqichi;

✚ bilish ehtiyojlarini tanlashga yo`nalganligini shakllantirish bosqichi;

✚ mustaqil tahsilga bo`lgan ehtiyojni rivojlantirish bosqichi.

Bilish faoliyatini jonlantirish faqat bilimlarni o`zlashtirish jarayonini yaxshilashgagina emas, balki shaxsning eng muhim sifati bo`lgan faollik va mustaqillikning shakllanishiga ham yo`naltirilgan bo`lishi zarur. Talabalar oliy o`quv yurtida o`qib turgan vaqtida bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashda barcha turdagi o`quv jarayoniga jalb qilinadilar. Bu davrda ular shaxsining asosiy qiyofalari shakllanadi.

Faoliyatining bu shakllarida ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilliklari, hissiyotlari, motivlari, shuningdek, umumiy va xususiy qobiliyatlari paydo bo`ladi va rivojlanadi. Olimlarning isbotlashlaricha, har qanday faoliyatning tarbiyaviy samaradorligi ko`proq uning tashkil etilish darajasiga bog`liq. Qachonki, yosh xususiyatlari faoliyat turlarining galmagalligi, me`yoriyligida amalga oshadi. Bilish faoliyatini jonlantirishda qiziqish alohida ahamiyatga ega. O`rganishga bo`lgan qiziqishni olimlar ijobiy, hissiy bo`yoqqa ega bo`lgan, bilim, malaka va ko`nikmalaiga bo`lgan alohida munosabat deb baholaydilar. Bilishga boigan qiziqish - o`qitishdagi o`ziga xos qiziqish turidir.

G.I.Shukina bilishga bo`lgan qiziqishni, insonning predmet va atrof-muhit hodisalariga bo`lgan murakkab munosabati va ularning muhim xususiyatlarini har tomonlama, chuqur o`rganish va bilishi, deb qaraydi. Bilishga bo`lgan qiziqish saralab olishga yo`naltirilgan va u shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bilishga bo`lgan qiziqish, bilish faoliyati mohiyati, fikrlarning obyektga bo`lgan betinim yaqinligi bilan bog`langandir.

Bilimga bo`lgan qiziqishning belgilari quyidagilardir:

- ✓ intellektual xarakterda bo`lishi;
- ✓ ijodiy xarakterda bo`lishi.

Bilimga bo`lgan qiziqishning rivojlanish bosqichlari:

✓ qiziqsinish - mo`ljalning elementar darajasi - “mo`ljallangan qiziqish”;

✓ qiziquvchanlik - bilishga bo`lgan ehtiros, quvonch bilan obyekt chegarasiga kirib borish;

✓ bilishga bo`lgan qiziqish - hodisalarning mohiyatiga kirib borishga intilish, haqiqatni qidirish.

✓ nazariy qiziqish - voqelikka faol ta`sir etish orqali nazariy asoslar, qomniyadami bilishga intilish.

Qiziqishning paydo bo`lishi va rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha sathlarga ajratish mumkin:

✓ yangi faktlarga, mashg`ulotlarda olinadigan axborotlarda gavdalanadigan mashg`ulotlarga bevosita qiziqish hamda har xil sharoitlarda harakat qiluvchi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini bilishga qiziqish;

✓ oirganishga bo`lgan barqaror qiziqish.

U talabalarga ta`lim berishda muhim xarakterga ega va unda bilishga bo`lgan qiziqish tashqi omillarga muhtoj hamda u real o`quv jarayoni shart-sharoiti va usullari bilan bogliq bo`ladi.

Bilishga bo`lgan barqaror qiziqishga quyidagilar kiradi:

✓ intellektual faollik (ko`rsatkichlari - savol va javob mustaqilligi, jonli faoliyatga o`z tashabbusi bilan kirishishga intilish);

✓ malaka va ko`nikmalardan faol foydalanish, ularning faol aks ta`siri (bilimlar yangi bilimlarni egallash metodlariga aylanadi, aksincha,

bilishga bo'lgan qiziqish o'zining eng yuqori rivojlanish darajasiga ko'tariladi);

✓ hissiyotni namoyish qilish (nafrat, quvonch, bezovta bo'lish, intellektual holatdagi hissiyot);

✓ irodani namoyish qilish - jiddiy diqqat qilish, kuchsiz chalg'ish, o'quv ishlarini tugallashga intilish;

✓ o'z xatti-harakatlarini erkin tanlash - o'quv mashg'ulotlaridan boshqa vaqtlarda u yoki bu mashg'ulotlarni erkin tanlay olish.

Talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishi shakllanishining muhim shartlaridan biri hissiy vaziyat, bilishga bo'lgan ehtiyoj va ongli fikrlashni rivojlantirishni yaratish bo'lishi ham mumkin. Talabalarning bilish faoliyati tuzilmasiga faollik kiradi, ya'ni bu shunday ish faoliyatiki, unda bilish faoliyatini jonlantiradigan intellektual, irodaviy, hissiy jarayonlar birgalikda namoyon bo'ladi. Jonli bilish faoliyati uchun, bilimga bo'lgan har tomonlama, chuqur qiziqish, muayyan kuch sarf qilinishi, diqqat, belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan aqliy va jismoniy kuchlar qaratilgan bo'lishi lozim. Bilish faolligi individual bo'ladi, u shaxsning tug'ma qobiliyati emas, balki uning xatti-harakatlari jarayonida shakllanadi.

Talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir:

• bilimga va o'quv maqsadlariga bo'lgan chuqur, har tomonlama qiziqish;

• aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish;

• diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to'plash.

Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 sath ajratiladi:

• reproduktiv faollik. Bunda "tayyor bilimlar"ni egallashga tayyorlik, qizg'in qayta ishlash faoliyati kabilar amal qiladi;

• aplikativ faollik - unga qizg'in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;

• izohlashdagi faollik - ma'no-mazmunni qizg'in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;

• produktiv (samarali) faollik - unga yangilikni qizg'in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir. Bilish faolligi rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

• mustaqil xatti-harakatlarga intilishda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyatdagi faollik;

• o'rganilayotgan hodisalarning mohiyati va tamoyillarini qo'lga kiritishdagi intilish;

• ijodiy faollik oliy bosqich bo'lib, u sabab-oqibat bog'lanishidan, ijodiy fikrlarning haqqoniyligiga, uning hayotiy va bilish qimmatiga ishonch hosil qilishdan tarkib topadi.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlili shunday xulosa qilishga izn beradi: *o'qitishda bilish faoliyatini jonlantirish deganda tom ma'noda fikrlash ishining faolligi tushuniladi*. Fikrlash faolligi bilish faoliyatida maqsadga muvofiq analiz va sintezda, o'quv materiallarini konkretlashtirish va bir tizimga keltirishda, induksiya va deduksiyaning konkretlashtirish va bir tizimga keltirishda, induksiya va deduksiyaning qo'llashda, bilimlar tizimini egallashda, dunyoqarash hamda tasavvurlar va tushunchalarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Talabalarning ijodiy faolligi rivojlanishi shaxsning o'rganilayotgan narsa va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishga intilish va bilish faoliyatiga yangilik va ijodiylik unsurlarini olib kira olishi qobiliyati bilan xarakterlanadi. Talabalarning faolligi ularning mustaqilligi bilan tig'iz bog'langan.

Bu tushunchalar bir-birini to'ldiradi. Chunki mustaqil harakatlarning o'zidayoq shaxsning faolligi namoyon bo'ladi, aksincha, faollik ko'pincha mustaqil harakatlarni taqozo qiladi.

Bilish mustaqilligi quyidagi belgilariga ega:

• mustaqil fikrlay olish va unga intilish;

• yangi vaziyatlarda muhajirni o'z bilishsa yoki yangi vazifalarni yechishga o'z yondashuvini topa bilish qobiliyati;

• o'zlashtirilayotgan bilimlarni nafaqat tushunishni istash, balki uni qo'lga kiritish usullarini topish;

• boshqa ishlarni baholashda tanqidiy yondashuv;

• o'z hukmlarining erkinligi.

B.P. Yesipov mustaqil ishlarni bilimlarni izlab topish, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, bilimlardan yangi sharoitlarda foydalana olish hamda bilimlarni amaliy qo'llash kabi didaktik vazifalar bilan bog'laydi. G.I. Shukina bilish mustaqilligida bilish va yangi amaliy vazifalarni belgilash, uni hal qilish usulini topish qobiliyatlari bilan ajralib

turadigan aslida esa mustaqil tafakkur sifatida xarakterlanadigan o`rganishni motivatsiyalash va undan foydalanish (operasiya) bo`lganligini ta`kidlaydi.

Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda bilish faoliyatining quyidagi tiplari farqlanadi:

- perseptiv;
- reproduktiv;
- produktiv.

Perseptiv bilish faoliyati - bu faoliyatning shunday namunasiki, unda predmet, voqea, hodisa va ular haqidagi ayrim ma`lumotlar belgilari vamazmuni og`zaki va yozma nutq vositasida aks ettiriladi.

Perseptiv faoliyat sezgidan boshlanadi va tasawurlami ifodalash bilan yakunlanadi.

Reproduktiv bilish faoliyati - bu faoliyat bilimlami amaliy va ijodiy faoliyatda pirovard natijada qayta ishlab chiqish bilan bog`langandir. Bilish faoliyatining bu namunasi bilimlami o`zlashtirish, ulami ijodiy ishda qo`llash va o`quv faoliyatining turli usullarini egallashni qamrab oladi. Produktiv bilish faoliyati - u faoliyatning shunday namunasiki, unda turli toifadagi ijodiy vazifalar hal qilinishga qaratilgan. Produktiv bilish faoliyatining turlaridan biri - evristik faoliyatdir.

Evristik faoliyat talabalaming mustaqil ishlari bilan birga amalga oshiriladi. Talabalarda peiseptiv, reproduktiv va produktiv bilish malaka, ko`nikma va qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun o`quv jarayonida ulaming har biriga xos bo`lgan faoliyatning shakl va mazmunini tashkil etish, ulami o`zaro bog`lash, ulaming galma-galligini ta`minlash va ulardan yaxlitlik hoida foydalanish zarur.

Bilish faolliigi ham, faoliyat maqsadi ham, unga erishish vositasi ham uning, natijasi sifatida qaraladi. "Bilish faolliigi" tushunchasida motivatsiya, intellektual va hissiy-irodaviy komponentlar farqlanadi. Talabalaming bilish faoliyatini jonlantirish deganda, o`qituvchining talabalar tomonidan bilimlarni egallash, malaka va ko`nikmalarni shakllantirish, ulardan amaliyotda foydalanishga qiziqish uyg`otish faolliigini, ijodkorligini, mustaqilligini oshirish maqsadida ta`limning mazmuni, shakli va usullari, metod va vositalarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

### Nazorat savollari

1. Talabalar bilimini baholashning reyting tizimi qanday tashkil etiladi?
2. Reyting tizimining asosiy afzalliklari nimada?
3. Baholash mezonlarini belgilashda qanday tamoyillar hisobga olinadi?
4. Formativ va summativ baholash o`rtasidagi farqlar nimalardan iborat?
5. Test nazorati qanday talabalar bilimini baholashda samarali hisoblanadi?
6. Portfolio baholash qanday tashkil qilinadi va uning ta`lim jarayonidagi o`rmi qanday?
7. Reyting tizimida ballar tizimini taqsimlashning asosiy qoidalari qanday?
8. Kompetensiyaga asoslangan baholashda qaysi omillar muhim?
9. Elektron baholash tizimlari qanday ishlaydi va ularning qulayliklari nimada?
10. Talabalar bilimini obyektiv baholash uchun qanday usullarni qo`llash mumkin?
11. Jamoaviy va individual baholash o`rtasidagi farqlar qanday?
12. Og`zaki va yozma nazorat usullarining afzalliklari nimada?
13. Amaliy topshiriqlarda talabalar bilimini baholash qanday amalga oshiriladi?
14. Reyting tizimi shaffofligini ta`minlash uchun qanday chora-tadbirlar ko`riladi?
15. O`z-o`zini baholash talabalarining mas`uliyatini oshirishga qanday ta`sir qiladi?
16. Baholash natijalarini tahlil qilish va refleksiya jarayoni qanday amalga oshiriladi?
17. Reyting tizimida davomiy nazoratning o`rmi qanday ahamiyatga ega?
18. Talabalar bilimini baholashning obyektivligini ta`minlash uchun qanday vositalar mavjud?

**FANDAN NAZORAT TURLARI JADVALI VA BAHOLASH MEZONLARI**

**I. NAZORAT TURI JADVALI**

**A. Baholash**

1) **Oraliq nazorat** – 50 ball, o'z ichiga:

– Seminarlarda faol ishtiroki – 20 ball;

– Test yoki yozma ish – 30 ball;

2) **Yakuniy nazorat** (nazariy savollar va kazu tahlili asosida javob berish) – 50 ball.

**B. Kazus tahlili uchun baholash tizimi** (Oraliq nazorati kazu javobi ham keltirilgan mezonlar bo'yicha baholanadi)

Baho	Ball (foizda)	Tavsif	Izoh
A	100–93	Yuqori darajadagi a'lo	1) Ish kazu sga javob berishning IRAC (Issues, Rules, Application, Conclusion) uslubiga rioya qilingan holda yozilgan. 2) Muammolar to'g'ri aniqlanib, ularga mos bo'lgan qonun hujjatlari qo'llanilgan. 3) Kazusga javob yuqori saviyadagi mustaqil fikrlash va tanqidiy mushohadani o'zida aks ettiradi. 4) Javobning xulosagacha bo'lgan qismda tegishli muammolar chuqur tahlil etilgan. 5) Kazusdagi muammolar tadqiq etilib, ular yuzasidan javob tizimli va to'liq asoslangan holda yozilgan. 6) Javobdagi g'oyalar tizimli tarzda bog'langan va xulosga qadar rivojlantirib borilgan. 7) Foydalanilgan manbalarga havolalar professional darajada keltirilgan.

			8) Ish grammatik xatolardan holi tarzda yozilgan. 9) Ish tahrirga muhtoj emas.
A-	92–90	A'lo	1) Ish kazu sga javob berishning IRAC (Issues, Rules, Application, Conclusion) uslubiga rioya qilingan holda yozilgan. 2) Muammolar to'g'ri aniqlanib, ularga mos bo'lgan qonun hujjatlari qo'llanilgan. 3) Kazusga javob yuqori saviyadagi mustaqil fikrlash va tanqidiy mushohadani o'zida aks ettiradi. 4) Javobning xulosagacha bo'lgan qismda tegishli muammolar chuqur tahlil etilgan. 5) Kazusdagi muammolar tadqiq etilib, ular yuzasidan javob tizimli va to'liq asoslangan holda yozilgan. 6) Javobdagi g'oyalar tizimli tarzda bog'langan, ammo ularni tahrir qilish natijasida yuqori darajaga olib chiqish mumkin. 7) Foydalanilgan manbalarga havolalar professional darajada keltirilgan. 8) Ishning ayrim o'rinlarida grammatik xatolar uchraydi.
B+	89.9–82	Juda yaxshi	1) Ish kazu sga javob berishning IRAC (Issues, Rules, Application, Conclusion) uslubiga rioya qilingan holda yozilgan. 2) Muammolar to'g'ri aniqlanib, ularga mos bo'lgan qonun hujjatlari qo'llanilgan. 3) Kazusga javob mustaqil fikrlash va tanqidiy mushohadani o'zida aks ettiradi.

			<p>4) Javobning xulosagacha bo'lgan qismida tegishli muammolar tahlil etilgan.</p> <p>5) Kazusdagi muammolar tadqiq etilib, ular yuzasidan javob tizimli va asoslangan holda yozilgan.</p> <p>6) Javobdagi g'oyalar tizimli tarzda bog'langan, ammo ularni tahrir qilish natijasida yuqori darajaga olib chiqish mumkin.</p> <p>7) Foydalanilgan manbalarga havolalar keltirilgan.</p> <p>8) Ishda grammatik xatolar uchraydi.</p>
<b>B</b>	81-77	<b>Yaxshi</b>	<p>1) Ish kazusga javob berishning IRAC (Issues, Rules, Application, Conclusion) uslubiga rioya qilingan holda yozilgan.</p> <p>2) Muammolar to'g'ri aniqlanib, ularga mos bo'lgan qonun hujjatlari qo'llanilgan.</p> <p>3) Kazusga javob mustaqil fikrlash va tanqidiy mushohadani o'zida aks ettiradi.</p> <p>4) Javobning xulosagacha bo'lgan qismida tegishli muammolar tahlil etilgan.</p> <p>5) Kazusdagi muammolar tadqiq etilib, ular yuzasidan javob asoslangan holda berilsa-da, ammo unda tizimli yondashuv yetishmaydi.</p> <p>6) Javobdagi g'oyalar tizimli tarzda bog'langan, ammo ularni tahrir qilish natijasida yuqori darajaga olib chiqish mumkin.</p> <p>7) Foydalanilgan manbalarga havolalar keltirilgan.</p> <p>8) Ishda grammatik va uslubiy xatolar uchraydi.</p>

